

# Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 11-yanvar, Shanba №6(9591)

## O'zimga savol

Sizga shogird qancha zukko, necha olim,  
Yetarlicha donolikka da'voyingiz.  
Shuurimda shovqin solar bir savolim:  
Qalbingizda bormi, aziz Navoyingiz?!

Hamma bilar: o'qigansiz ming-ming kitob,  
Ma'lum erur mutolaa ma'voyingiz.  
Javob izlab yangrayverar ulug' xitob:  
Qalbingizda bormi, aziz Navoyingiz?

Shodmon emas g'urbatlarda ancha g'arib,  
Quloqlarni tom bitkazar g'avg'oyingiz.  
Sarsonlikda sarvigulro' qoldi qarib,  
Qalbingizda bormi, aziz Navoyingiz?

Qorin g'ami qayg'ularni toshiradi,  
Yuksaklarga parvoz qilmas parvoyingiz.  
Ulkan og'riq aql-u hushni shoshiradi,  
Qalbingizda bormi, aziz Navoyingiz?

Gar navobaxsh bo'lmasangiz navo sizga,  
Demak bordir andak kibr-u havoyingiz.  
Navoiydur bunday palla davo sizga,  
Qalbingizda bormi, aziz Navoyingiz?  
Qalbingizda doim bo'lsin Navoyingiz!

Muhammad VALI

## NAVOIY G'AZALLARI SHARHI NEGA SUSTLASHDI?

3-bet

## O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Olimpiadalarni ko'paytirish kerak. Xususiyl, onlayn va offlayn olimpiadalar... Barcha fanlardan har chorak yoki oyda bir o'tkazilgani ma'qul. Bir necha yil oldin Khiso platformasida har oy olimpiada tashkil qilinardi. O'quvchilar qiziqib qatnashishardi. Hozirgi kunda ham vaqti-vaqti bilan ayrim o'quv markazlari tomonidan pullik olimpiadalar tashkil qilinyapti.

Mahbuba HOJIYEVA



O'quvchilar darsda xuddi zombidek o'tirishadi, qancha harakat qilmaylik, turli o'yin, metod, usullarni qo'llamaylik foydasi yo'q, baribir qiziqishmaydi. Adabiyotdan shunday ajoyib asarlarni gapirib beraman, davomini o'qisharmikan deyman, yo'q, o'qishmaydi. Shunchalar loqayd, hissiz o'tirishadiki, to'g'risi, qo'rqib ketaman. Kelajak loqayd avlodning qo'lida qolsa, jamiyat nima bo'ladi?..

Malohat OXUNOVA

## NAVOIY VA HAKIMLAR

4-5-betlar

## AKADEMIK ILMDAGI REKORDLAR

10-11-betlar





## Adabiy meros

Turkiy adabiyot tarixi ko'p asrlik rivojlanish jarayonida umumiy g'oyaviy, badiiy va estetik qadriyatlar asosida shakllangan. Ushbu adabiy makon markazida Alisher Navoiy ijodi alohida o'rin tutadi. Navoiy turkiy tilning adabiy imkoniyatlarini yuksak darajaga ko'targan, uning ulkan falsafiy va badiiy asarlar yaratishga qodir til ekanini amalda isbotlagan mutafakkirdir. Navoiy asarlari turkiy xalqlarning, jumladan, qoraqalpoq xalqining adabiy tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

ADABIY AN'ANALAR  
UYG'UNLIGI

Qoraqalpoq adabiyotining shakllanishida og'zaki ijod namunalari bilan bir qatorda, mumtoz yozma adabiyot an'analari muhim o'rin egallagan. Navoiy asarlaridagi adolat, komil inson, ilm-ma'rifat va axloq-odob g'oyalari qoraqalpoq adabiy muhitida keng tarqalgan. Qoraqalpoq mumtoz adabiyotida didaktik yo'nalish, nasihat-aqlga asoslangan she'r shakllari, shuningdek, tasavvuf ruhida-gi asarlar Navoiy asarlari bilan o'xshashlikka ega. Xususan, g'azal janrining rivojlanishi, badiiy tasvir vositala-rining boyishi va obrazlar tizimidagi ma'lum ma'nolar Navoiy maktabi ta'sirida shakllanganini ko'rish mum-kin. Turkiy adabiy aloqalar tarixini o'rganishda Ali-sher Navoiy merosining qoraqalpoq adabiy muhitiga ta'siri nafaqat g'oyaviy yoki janriy darajada, balki til, poetik tafakkur va adabiy ongning shakllanishi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy asarlarida takomillashtiril-gan chig'atoy adabiy tili qoraqalpoq yozma adabiy tili-ning shakllanishida muhim tayanch vazifasini bajargan. Xususan, leksik birliklar, badiiy so'z birikmalari va poe-tik sintaksis elementlari qoraqalpoq adabiyotida ijodiy tarzda o'zlashtirilgan. Yana bir muhim jihati shundaki, Alisher Navoiy ijodida ilgari surilgan ijtimoiy mas'uliy-at va adolat konsepsiyasi qoraqalpoq adabiy tafakku-rida ijtimoiy-tarbiyaviy funksionaning kuchayishiga olib kelgan. Qoraqalpoq shoirlari ijodida jamiyatdagi tengsiz-lik, xalq dardi, yetim-yesirlar taqdiri kabi masalalarning badiiy ifodalanishi Navoiy an'analarning davomi sifa-tida talqin etiladi. Bu holat Navoiy merosining nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'rifiy maktab sifatida ham qabul qilinganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Navoiy ijodida yetakchi bo'lgan tasavvufiy timsollar va ruhiy o'zlikni anglash g'oyasi qoraqalpoq adabiyotida xalqona ruh bilan uyg'un holda rivojlangan. Agar Navoiy asarlarida tasavvuf ko'proq falsafiy-badiiy shaklda aks etgan bo'lsa, qoraqalpoq adabiyotida u axloqiy tarbiya va xalqona nasihat vo-sitasiga aylangan. Bu holat turkiy adabiyot doirasida bir g'oyaning turli madaniy muhitlarda turlicha badiiy talqin qilinishini ko'rsatadi. Muhim yangiliklardan yana biri shuki, zamonaviy adabiyotshunoslikda Navoiy va qoraqalpoq adabiy aloqalari "adabiy transfer" nazariya-si asosida tahlil qilinmoqda. Ya'ni, badiiy g'oyalar va she'riy shakllar bir adabiyotdan boshqasiga to'g'ridan to'g'ri ko'chirilmaydi, balki mahalliy mentalitet, tarixiy sharoit va estetik talablarga mos ravishda qayta yaratila-di. Qoraqalpoq adabiyotida Navoiy an'analari ana shun-day ijodiy transformatsiya orqali rivojlangan. Bundan tashqari, qoraqalpoq adabiy muhitida Navoiy merosini o'rganish XX asrda ilmiy bosqichga ko'tarilib, maxsus tadqiqotlar, tarjimalar va o'quv dasturlari orqali mus-tahkamlangan. Bu jarayon Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyot xotirasida doimiy madaniy kod sifatida saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Navoiy asarlaridagi ax-loqiy ideallar yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba sifatida talqin etilmoqda. Shu asosda Navoiy va qoraqal-poq adabiy an'analari o'rtasidagi uyg'unlik faqat tarixiy ta'sir bilan cheklanmay, bugungi kunda ham turkiy adabi-yotning integratsion rivojlanishida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu uyg'unlik turkiy xalqlar adabiyotida mushtarak qadriyatlar tizimi mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, qoraqalpoq adabiyotida ye-tishib chiqqan ko'plab shoir va adiblar ijodida Navoiy an'analari davom etgan. Ularning asarlarida insonparvar-lik, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik g'oyalari ustuvor bo'lib, bu holat Navoiy merosining umumturkiy adabiy makonda uzluksizligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, Alisher Navoiy asarlari va qoraqalpoq adabiy an'analari

o'rtasidagi uyg'unlik tasodifiy emas, balki tarixiy-adabiy rivojlanishning qonuniy natijasidir. Bu uyg'unlik turkiy xalqlar adabiyotining yagona ildizlardan oziqlangani va umumiy madaniy makonga ega ekanini ko'rsatadi. Turkiy adabiyot kontekstida Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiy an'analari bilan uyg'unligini tahlil qilishda janrlararo ta'sir masalasi alohida ilmiy ahami-yatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy asar-larida takomillashgan masnaviy, qasida va g'azal janrlari qoraqalpoq adabiyotida nafaqat shakliy jihatdan, bal-ki mazmuniy o'zgarish orqali qabul qilingan. Ayniqsa, masnaviy janrining didaktik va falsafiy imkoniyatlari qoraqalpoq adabiyotida tarbiyaviy-estetik vazifani ba-jaruvchi asosiy shakllardan biriga aylangan. Yana bir muhim, kam yoritilgan jihat – Navoiy ijodida markaziy o'rin tutuvchi so'z va ma'naviyat munosabati masalasi-ning qoraqalpoq adabiy tafakkuriga ta'siri hisoblanadi. Navoiy so'zni ilohiy ne'mat, ma'naviy mas'uliyat sifati-da talqin qilgan bo'lsa, qoraqalpoq adabiyotida bu g'oya so'zning xalq oldidagi burchi, shoirning jamiyat oldi-dagi mas'uliyati tarzida rivojlangan. Natijada qoraqal-poq adabiyotida shoir obrazi nafaqat san'atkor, balki ijtimoiy-ma'naviy yo'lboshchi sifatida shakllangan. Shu-ningdek, Navoiy asarlarida kuzatiladigan tarixiy ong va zamon bilan fikr almashish tamoyili qoraqalpoq adabi-yotida milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirgan. Navoiy o'z davrining siyosiy va ijtimoiy masalalarini ba-diiy timsollar orqali aks ettirgan bo'lsa, qoraqalpoq ada-biyotida bu yondashuv xalqning tarixiy taqdiri, ko'ch-manchi turmush tarzi va ijtimoiy sinovlarini tasvirlashga yo'naltirilgan. Bu holat Navoiy merosining mahalliy tari-xiy tajriba bilan sintezlashuvga kirishganini ko'rsatadi.

Hozirgi adabiyotshunoslikda ilgari surilayotgan yana bir yangi yondashuv – Navoiy va qoraqalpoq adabiy alo-qalarini madaniy jadid konsepsiyasi asosida o'rganishdir. Ushbu yondashuvga muvofiq, Navoiy ijodi qoraqalpoq adabiyotida ma'lum bir matnlar to'plami sifatida emas, balki avloddan avlodga o'tib kelayotgan ruhiy asosiy nuqta vazifasini bajaradi. Qoraqalpoq adabiy tafakkurida Navoiy nomi adolat, ilm va ma'naviy poklik ramzi sifa-tida mustahkamlangan. Bundan tashqari, Navoiy merosi-ning qoraqalpoq adabiyotida qabul qilinishi jarayonida og'zaki va yozma an'analarning sintezi muhim rol o'yna-gan. Navoiy asarlarining ayrim g'oyalari qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida maqol, hikmat va doston motivlari orqali yashab kelgan. Bu holat yozma adabiyotning og'zaki ijod bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanganini va Navoiy an'analarning xalq xotirasida badiiy qayta shakllanganini ko'rsatadi. Natijada Alisher Navoiy va qoraqalpoq adabiy an'analari o'rtasidagi uyg'unlikni na-faqat ta'sir doirasida, balki ijodiy hamkorlik va umumiy adabiy tafakkur makoni sifatida talqin qilish mumkin. Bu yondashuv turkiy adabiyot tarixini yaxlit, bir butun jarayon sifatida tushunishga imkon beradi va Navoiy merosining zamonaviy ilmiy talqinlari uchun yangi im-koniyatlar ochadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlari qoraqalpoq adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Uning asarlari tur-kiy adabiyotda badiiy fikr birligini ta'minlab, qoraqalpoq adabiy an'analarning boyishiga katta hissa qo'shgan. Navoiy adabiy merosi bugungi kunda ham turkiy xalqlar adabiy aloqalarini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Juldiz NSANBAYEVA,  
Kegeyli tumanidagi

5-maktabning o'zbek tili o'qituvchisi

## Navoiy va bugun

Assalomu alaykum, ma'naviy pirimiz – hazrat Alisher Navoiy ijodini xalqimizga yetkazish va uni o'rgatish yo'lida xizmat qilayotgan adabiyotshunos olimlar.

Men O'zbekiston tumanida yashovchi, Navoiy ijodi-niing ixlosmand muxlisi, muallim Oqiljon Mavlonovman. Murojaatdan murodim shuki, yurtimizda Hazrat ijodini targ'ib qilish va ommaga yetkazish ishlarini yanada jon-lantirish zarur. Avvallari shoir tavallud ayyomi arafasida telekanalarda yurtimiz navoiyshunos olimlarining chi-qishlari hamda davra suhbatlari efirga uzatilardi. Alibek Rustamov, Abduqodir Hayitmetov, Aziz Qayumov, Suyima G'aniyeva, Najmiddin Komilov kabi yirik navoiyshunos darg'alarning suhbatlaridan bahramand bo'lar edik. Bir zamonlar Najmiddin Komilov, Sultonmurod Olimov ustoz-lar boshchiligidagi "Qalb gavhari" turkum ko'rsatuvlari ham yo'lga qo'yilgan edi... Bugun telekanalar soni ko'paygan bo'lsa-da, shoir tavalludi arafasida tomoshabinlar miriqib tomosha qiladigan bu kabi ko'rsatuvlar deyarli tashkil etil-mayapti. Nazdimda, so'nggi yillarda shoir ijodini targ'ib qilish ishlari sezilarli darajada sustlashib bormoqda. Bun-ga fidoyi va faol navoiyshunos olimlarimiz kamayib bo-rayotgani sababmi, bunisi bizga mavhum. Biroq Navoiy g'azaliyotini ommaga yetkazish ishlari markazlashtirilgan holda tizimli yo'lga qo'yilishi nazorat ostiga olinmog'i zarur. Ancha oldin "G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar" singari ko'pgina olimlarning maqolalari bir joyga jamlan-gan to'plamlar chop etilgandi. Shu xayrli ishlar an'anaga aylantirilmadi. Keyinroq zahmatkash va fidoyi ustozimiz Najmiddin Komilov domlaning "Navoiy va yoshlar tar-biyasi" (2010-yil) nomli 40 ta g'azal talqini qamrab olin-gan kitobi, so'ngra "G'azal gulzoridan 100 otashin gul" (2013-yil), deb atalgan shoir g'azallari ma'no va mazmu-ni sharhlangan kitobi ham nashr etilgandi. Ustoz vafotidan so'ng negadir shu ishlar to'xtab qoldi...

Shu yo'nalishda Anvar Hojiahmedov domla tomonidan g'azal tahlillaridan iborat to'plam tayyorlanayotgani haqi-da xushxabarlarni ham eshitgan edik, biroq mazkur ishning borishi va natijalari yuzasidan aniq ma'lumotlarga ega bo'la olmadik.

Yurtimizda shoir g'azallarining sharhi va nasriy bayoni-ni ixlosmand muxlislarga yetkazishga qaratilgan yagona, markazlashgan va istiqbolli tizim ishlab chiqilganmi, uning nazorati kimning hamda qaysi ilmiy-tadqiqot muassasasi-ning zimmasida ekani haqida axborot berilsa, ayni muddao bo'lur edi. Vatanimizda Navoiy g'azaliyotini o'rgatish va targ'ib qilishga oid ilmiy ishlar mavzularini belgilash, tema-tika g'oyaviy motivlari tizimga solinishini markazlashtirish singari akademik ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilish jarayonidan biz muxlislar mutlaqo bexabarmiz. Bu yo'na-lishga munosabat bildirish, takliflar berish uchun, avvalo, biz shu ilmiy faoliyatning borishidan biroz xabardor etilishimiz lozim. Mana, biz kabi bir avlod qarimoqda. Hali shoir g'azallarining bizga mavhum g'oyaviy motivlari bisyor... "Navoiy va Qur'on", "Navoiy va tasavvuf", "Navoiy va hadislar" kabi shoirni ma'naviy jihatdan oziqlantirgan tarixiy muhit hamda manbalar borasidagi ilmiy kuzatish-lar natijalari qachon keng jamoatchilikka ochiqilanadi? Menimcha, Navoiy g'azallarini to'liq anglash uchun shoir yigitlik chog'larida piri hazrat Jomiydan o'rgangan arab va fors tasavvuf ta'limotiga oid asarlarni aniqlab, ularning ommabop talqini ixlosmand muxlislar e'tiboriga taqdim qilinmog'i juda zarur va muhim. Ana shunda biz shoirning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashiga tamal toshi bo'lgan uqroviy hamda irfoniy o'zanlar qirg'og'iga yaqinlasha-miz. Navoiy o'qib uqqan o'sha asarlar tabdilini o'z ona tili-mizda o'qisak va o'zlashtirsak, shunda Navoiy g'azallarini anglamoq sari biroz tafakkuriy tuynuk ochiladi.

Bir muxlis sifatida o'zimni misol keltiradigan bo'lsam, avvallari pedagogik faoliyat bilan band bo'lganim sabab shoir devonlarini mutolaa qilishga yetarli vaqt ajrata olma-ganman. So'nggi besh yildan buyon nafaqaga chiqqach, bu masalaga jiddiyroq e'tibor bera boshladim. Shoir devonla-rini o'qir ekanman, ko'plab savollar tug'iladi, biroq ularga ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan javoblar yetarli emasligi seziladi.

Bu savollarga risoladagidek javob topish uchun esa navoiyshunos olimlarning qiyosiy-ilmiy kuzatuvlari aso-sida chiqarilgan xulosalar zarur. Ehtimol, meni o'ylanti-rayotgan savollarning ayrimlariga ilmiy monografiyalarda allaqachon javoblar berilgandir. Ammo biz kabi muxlislar yurtimiz markazidan olisda yashaganimiz sabab bunday tadqiqotlar yakunlaridan bexabar qolib ketmoqdamiz.

Shu bois shoir g'azallari tahlillarini keng ommaga yet-kazish borasidagi birinchi taklifim quyidagicha:

**Avvalo**, to'rt devonidagi na't g'azallar(an'anaga ko'ra, g'azallar arab alifbosi tartibida joylashtirilgani sababli, har





# NAVOIY G‘AZALLARI SHARHI NEGA SUSTLASHDI?

## Navoiyshunos olimlarga murojaat

bir harf bilan boshlanuvchi “bo‘lim” boshidagi na’t g‘azallar ham birgalikda) ajratib olinib, mavjud bo‘lsa, hamd g‘azallar ham shu turkumga qo‘shilib **alohida bir to‘plamda sharhlanishi zarur**. Bu ommaning shoir g‘azaliyotiga bo‘lgan e’tibori va qiziqishini yanada oshiradi.

**Ikkinchi taklif** shundayki, shoir g‘azaliyotida fano, baqo hamda faqr maqomiga oid o‘g‘itiy baytlar deyarli har bir g‘azalda maqta’dan oldingi baytda bayon qilib borilgan. Mana shu fano konsepsiyasiga (boricha baqo va faqrlikka oid) baytlar alohida ajratib olinib, bir ilmiy kuzatuv ostida sharhiy to‘plam holiga keltirilishi shart. Bu Navoiy shaxsi va siymosini yanada ko‘z oldimizda tiklashimizga fundamental asos bo‘ladi. Ehtimol, shoirming nega uylanmay tajrid o‘tganligi, Haj ziyoratiga juda orzumand bo‘lmaning ma’naviy asoslari ham shu baytlar zamiridagi so‘fiyona-orifona motivlardan anglashilsa, ajab emas. Chunki bu baytlar zamirida faqrlik maqomining ma’naviy asoslari jam bo‘lsa kerak...

**Keyingi taklif** shundan iboratki, Islom sivilizatsiyasi markazining mutaxassis olimlari bilan hamkorlikda Alisher Navoiy g‘azallarida islom shariati talablari, sunnat va farz masalalarining qay darajada aks etgani, shuningdek, g‘azallarda bayon etilgan mulohazalarning Qur’oni karim oyatlari hamda suralar ko‘rsatmalariga muvofiqligi masalasi kalom ilmi asosida chuqur tadqiq etilishi zarur. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarining yakunlari keng jamoatchilikka ommabop shaklda taqdim etilishi ayni muddao bo‘lur edi.

Alisher Navoiyning kunyalaridan biri “Nizomiddin” bo‘lgan. Xalq tomonidan bunday yuksak ma’noli taxallus berilishi ham, shubhasiz, tasodifiy emasdir.

Navoiy badiiy obrazlarida an’anaviylik va ohorlilik masalasini tushunish ham juda mushkul. Navoiygacha va u kishidan keyin ijod qilgan turkiy she’riyat vakillari ijodiga nazar solsak, an’anaviylik barqaror tadrijda davom etgan... Navoiy obrazlari galereyasiga nazar solsak, bu stabillik mutloq buzilgan. Har bir an’anaviy obrazlar yuksaltirilgan, yangi ma’naviy tuslar bilan boyitilganiga duch kelamiz. Endi bu originallikmi, shoir ijodiga xos fenomenmi, bir qarorga kelolmaymiz. Sababi, biz arab va fors g‘azaliyotidagi an’anaviy obrazlar tadrijidan xabardor emasmiz. Mana shunday qaltis vaziyatlarda ilmiy-akademik fikrlovchi mutaxassislarimizning qiyosiy xulosalari biz muxlis-larga juda asqotadi. Turkiy mumtoz adabiyot o‘z tajribasi va ilmi bade’ san’atini bir qolipga keltirishga intilib yotgan bir davrda arab va fors g‘azalchiligi bu bosqichni allaqachon bosib o‘tib bo‘lgan hamda ma’lum yutuqlarga ham erishgan edi. Navoiy ijodidagi obrazlarni shoir ijodidan avval va u kishining ijodidan so‘ng yaratilgan g‘azallardagi obrazlarga qiyoslasak, Navoiy juda ko‘plab yangidan yangi (ayniqsa, tasavvufiy) timsollar turkumini kashf etganiga guvoh bo‘lamiz va bu holat originallikdek ko‘rinadi. Ammo bu holat arab va fors adabiyotida o‘sha davrda qanday edi, degan o‘y keladi. Oqibatda muxlis odil xulosaga kelolmaydi. Shunday vaziyatlarda navoiyshunos olimlarimizning akademik xulosalariga tayanish ehtiyoji tug‘iladi. Bunday xulosalar esa monografiyalar avroqlarida chang bosib yotgandir, ehtimol.

Mustaqillikdan so‘ng joriy etilgan birinchi avlod umumta’lim adabiyot dasturiga mos ravishda tayyorlangan 8-sinf adabiyot darsligida (1993-yil) iqtidorli matshunos olim Vahob Rahmon tomonidan Alisher Navoiyning to‘rt g‘azalining original nasriy bayoni taqdim etilgan edi. Ushbu tabdil nihoyatda muvaffaqiyatli amalga oshirilib, o‘quvchi va ixlosmand muxlislar uchun tushunishga qulay, sodda va ravon uslubda bayon qilingan.

Afsuski, ustoz bu yo‘nalishdagi samarali tajribalarini keyinchalik davom ettirmadi. Ehtimol, ilmiy davralarda yoxud matbuot orqali munozara madaniyati doirasidan chiqib, g‘aliz va dag‘al uslubda munosabat bildirishga odatlanib qolgan biror munaqqid “olim” domlaning bu o‘quv qo‘llanmasidagi mehnati va izlanuvchanligini noo‘rin tanqidiy sharh ostiga olgandir. Biroq o‘sha yillarda men Farg‘ona viloyat TXQTMOIning Qo‘qon filialida o‘tkazgan anketa so‘rovnoma ustozning bu nasriy bayoni adabiyot muallimlarining yuksak tahsiniga sazovor bo‘lgandi.

Hozir oradan ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, o‘sha “Qaro ko‘zum...” g‘azali talqini va sharhi kiritilgan shu ilk darslik ko‘pchilik adabiyot muallimlari davrasida har doim juda kuchli qo‘msash va mahzunli achinish bilan yodga olinadi. Bu darslik keyinchalik 10-sinf adabiyot qo‘llanmasiga

kiritilgan “Qaro ko‘zum...” g‘azalining tahlili nazarda tutilgan darslikning qurboni bo‘ldi. Chunki mazkur dastur Respublika o‘quv-metodika markazi qoshidagi o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashning 1992-yil 13-martdagi qarori bilan tasdiqlanib, o‘qituvchilarga amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etilgan “Umumta’lim maktabi o‘zbek adabiyoti dasturi”da 10-sinf o‘quv dasturi doirasida Alisher Navoiy lirikasini o‘rganish jarayonida “Qaro ko‘zum” g‘azalini o‘qitish aslo ko‘zda tutilmagan edi. Keyinchalik 10-sinf adabiyot darsligi mualliflari qayta shakllantirishi munosabati bilan amalga oshirilgan o‘zgartirilishlar sabab, aniqrog‘i, shu tarkibdagi biror olimning niyatli urinishlari bois bu g‘azalning 10-sinfda o‘rgatilishiga erishildi chog‘i. Oqibatda esa 1999-yili Begali Qosimov hammuallifligidagi birinchi avlod 10-sinf darsligining ilk birinchi nashrida o‘ninch sinfda shoirming “Qaro ko‘zum...” g‘azali o‘quvchilarga o‘rgatish uchun taqdim qilindi. Bu davrga kelib 8-sinf adabiyot darsligining 3-nashri (1997-yil) amalda qo‘llanayotganiga ikki yil bo‘lgan edi. Xullas, shu darslik amaliyotda qo‘llana boshlanganidan yetti yil o‘tib 10-sinf darsligining 1-nashri chop etilgandi. B.Qosimov domla nima maqsadda hamda qaysi ilmiy-metodik asoslarga muvofiq shoirming “Qaro ko‘zum...” g‘azalini aynan 10-sinf o‘quvchilariga o‘rgatish lozim, deb topgani bizga noma’lum. Achinarlisi, bu darslikning umri uzoq bo‘lmadi. Shoirming el suygan va ardoqlagan bir mashhur g‘azali mana shu pinhoni bahs sabab har ikki darslikdan ham olib tashlandi. O‘rniga yangi tarkib asosidagi mualliflarning yangi o‘quv qo‘llanmasi amaliyotga joriy etildi. Shu pinhona tortishuvlar sabab, ehtimol, Vahob Rahmonov domlaning nasriy talqini ham amaliyotdan olindi. Orada qanday bahs-u munozaralar kechgani bizga qorong‘i, biroq ustozning shu darslikdagi nasriy tabdili juda maqtovga va e’tirofga loyiq edi. Shu ma’noda hozir shoir kulliyotidan qilinayotgan nasriy tabdillarga ustoz Vahob Rahmonovni ham jalb etib, uning katta tajribasidan unumli foydalanmoq zarur, bizningcha.

Boqijon To‘xliyev boshchiligidagi “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining to‘liq nasriy bayoni ustida izchil ishlar olib borilayotgani haqida xushxabarlar ham bor. Shu munosabat bilan Navoiy ixlosmandlarini navoiyshunoslikda shoir g‘azaliyotini keng ommaga yetkazish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar haqida muntazam xabardor etib borish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xususan, biror ommaviy axborot vositasida olib borilayotgan ishlarning ko‘lami, natijalari va istiqbollari yuzasidan vaqti-vaqti bilan hisobot mazmunidagi maqolalar e’lon qilinishi muxlislar bilan ilmiy jamoatchilik o‘rtasida uzviy aloqaning uzilmasligiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda men kabi Alisher Navoiy ijodining minglab ixlosmand muxlis-lari shoir g‘azaliyotining mutaxassis olimlar tomonidan amalga oshiriladigan nasriy talqinlarini katta umid bilan kutib yashamoqda. Shu bois ushbu ishlar izchil nazoratga olinib, imkon qadar tezlashtirish choralari ko‘rish muhim, deb hisoblaymiz. Qolgan devonlarning nasriy tabdillarimizdan ham bahramand bo‘lish orzusi ko‘pchiligimizning qalbimizda yashamoqda.

Shu munosabat bilan amalga oshirilayotgan ishlarning borishi, duch kelinayotgan muammolar, istiqbollari va kelajagi haqida keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan bir maqola taqdim etishingizni iltimos qilib qolamiz.

Navoiyshunoslikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tematikasi qanday asoslarda belgilanadi, ushbu mavzularni kim taklif etadi va tasdiqlaydi – bu masalalar ham biz muxlislar uchun hanuz mavhumligicha qolmoqda. Holbuki, mazkur ilmiy faoliyat uzoq muddatli va puxta ishlab chiqilgan istiqbol dasturiga tayangan holda olib borilishi lozim. Bunday dastur yakunida sinchkov muxlis-larni o‘ylantirib kelayotgan asosiy savollarga tizimli va ilmiy asoslangan javoblar majmuasi yuzaga kelishi zarur.

Afsuski, so‘nggi yillarda ayrim ilmiy jurnallarda chop etilayotgan ba’zi mavzular mazmunan sayoz, ilmiy yuklama jihatidan yengil bo‘lib, chuqur mushohada va xulosalarga olib kelmayotgandek taassurot uyg‘otadi. Holbuki, men bir muxlis sifatida ko‘plab savollaringma aniq va asosli javob topishni istayman, Alisher Navoiy ijodini bevosita shoirming dunyoqarashi darajasida anglash va to‘laqonli tushunishni xohlayman. Ammo shoir ijodidagi asosiy motivlarni tizimli ravishda ochib beruvchi ilmiy maqolalar nihoyatda kam.

Men, bir ixlosmand muxlis sifatida, quyidagi mavzular-da chuqur va tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilishini istardim:

“Shoir g‘azallarida fano, baqo va faqr (orif) masalasining yoritilishi hamda undan kelib chiquvchi xulosalar”, “Shoir devonlarida *balo* so‘zining qo‘llanilishi va u anglatuvchi ma’no-mazmun qirralari”, “Navoiy g‘azaliyotida *qjz-u niyoz*, *noz-u istig‘no* motivlarining tasvirlari, an’anaviyligi, mazmun ko‘lami”, “Shoir devonlarida *“o‘ldim”* (o‘lmoq) so‘z timsolining mazmun va ma’no tuslari, an’anaviylik va ohorlilik masalasi”, “Navoiy g‘azaliyotida *riyo*, *ujb* masalasining yoritilishi, uning ilmi kalom va hadislarga muvofiqligi”, “Navoiy g‘azallari timsollarining arab va fors-tojik mumtoz adabiyotidagi genezisi va ohorlilik”, “Navoiy ijodida *qaro ko‘z* (qorako‘z) birikma istiorasining arab (yo fors-tojik) mumtoz adabiyotidagi ildizlari”, “Shoir g‘azaliyotidagi *gulbarg* (gulyafroq) timsolida sharq an’anaviyligi va ohorlilik”, “Navoiy g‘azaliyotidagi tashbeh tasvirlardagi an’anaviylik va o‘ziga xoslik masalasi”, “Shoir g‘azallaridagi pari timsolining fors-tojik va arab mumtoz adabiyotidagi muqobiliga qiyosan yaratilgan originallik”, “Navoiy ijodida an’anaviylik va ohorlilik” (arab va fors-tojik mumtoz adabiyoti qiyosida), “Shoir devonlarida oyat va suralardan olingan iqtiboslarning to‘liq muqobili, bu ma’nolarning muhaddislar tafsiriga qiyosi”, “Navoiy devonlaridagi hamd hamda na’t mazmunidagi g‘azallarining tabdili va sharhiy nasriy bayoni”, “Navoiy g‘azallaridagi *yoy o‘qi* (novak) va *paykon* (boshqoq) timsollarining qo‘llanilishi va qiyosiy mazmun mundariyasi”, “Shoir g‘azallarida qo‘llangan *it* obrazining tadriji, an’anaviylik va originallik”, “Navoiy devonida ishlatilgan *shavq holii* timsolining mazmun polifonikligi va turkiy an’anaviylik”, “Shoir kulliyotida tasvirlangan *sham* timsolining mazmun qirralari va an’anaviylik (arab va fors-tojik mumtoz adabiyoti qiyosida)”, “Navoiy devonlarida yuz qismlari: *peshona*, *ko‘z*, *qosh*, *qaboq*, *yanog*, *dahan*, *jabin*, *zaqan*, *zanaxdon*, *g‘abg‘abi*, *kiprik*, *lab*, *og‘iz*, *tish*, *quloq* (va boshqalar) timsollari tasviri, an’anaviylik va ohorlilik”, “Shoir g‘azaliyotida *ko‘ngil* (qalb) va *bag‘ir* (jigar) obrazlari ko‘lami va ohorli kashfiyotlar (turkiy mumtoz adabiyotga qiyosan)”, “Navoiy g‘azallarida majoziy (uzum bodasi) may va haqiqiy (tavhid) may talqinlari ko‘lami, ohorlilik qirralari”, “Shoir devonlarida *shayx*, *zohid*, *piri dayr* va *piri mug‘on* obrazlari talqini va originallik” (fors-tojik va arab mumtoz adabiyoti misolida), “Shoir kulliyotida undalmalardan foydalanish va ularning turfanigohligi ko‘lami”, “Navoiy g‘azaliyotida Ishq mavzusining tarannumi va o‘ziga xos nozikliklar (lozim topilsa dostonlaridagi ishq mavzusi mazmun-mundariyasi ham qamrab olinadi)”, “Shoir devonlarida *g‘amza* (o‘qi), *noz-u karashma*, *istig‘no-yu ishva* chizgilari, an’anaviylik va ohorlilik kashfi”, “Navoiy g‘azaliyotida yor teri (aroq) tasvirlaridagi o‘ziga xoslik ohanglari (fors-tojik adabiyotiga qiyosan)”, “Navoiy kulliyotida otliq yor (chobuk) tasvirlari, tasnifi (qiz – ma’shuqa yo yigit – oshiq) masalasi, g‘azallardagi ot turlariga oid (nomlanishi) ma’lumotlar”, “Alisher Navoiy devonlarida yigitlarga bag‘ishlangan g‘azallar tabdili va nasriy bayoni, bu mavzuning arab va fors adabiyotidagi muqobillari qiyosi” singari shoir motivlarini ochiqlovchi maqolalarga ehtiyoj bor.

Bunday dolzarb mavzularga Alisher Navoiy hazratlarining devonlariga tayanib yuzlab misollar keltirish mumkin. Eng muhimi, bugun shoirming chin ixlosmand muxlislarini tinglaydigan, ularning savollari va ehtiyojlariga e’tibor qaratadigan biror Navoiyxonlik uyushmasi yoki markazining tashkil etilishi davr talabidir. Darg‘a navoiyshunos olimlar tilga olingan yo‘nalishlarda fundamental tadqiqotlar olib borib, shoirming haqiqiy muxlis-lari talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan samimiy va xolis ilmiy ishlar amalga oshirishlarini umid bilan kutib qolamiz. Men akademik bilimlar zaxirasiga ega emasman, shu bois ayrim mulohazalarda yanglishroq munosabat ifodalagan bo‘lsam, avvaldan navoiyshunos mutaxassis-olimlardan uzr so‘rayman. Shu bois ayrim mulohazalarimda xato yoki biryozlama munosabat ifodalangan bo‘lsa, buning uchun avvaldan navoiyshunos mutaxassis olimlardan uzr so‘rayman. Yuqorida bayon etilgan fikrlar navoiyshunoslik jarayonlarini sirdan kuzatgan bir muxlisning taassurotlari va mushohadalaridan iborat, xolos. Ilmiy-ijodiy ishlaringizga barkamollik tilayman!

Oqiljon MAVLONOV,  
faxriy o‘qituvchi





## Moziydan sado

Alisher Navoiy asarlarida inson baxti, qadri, kamoloti, muomala madaniyati, ta'lim va tarbiya, ilm-fan targ'iboti, davlat boshqaruvida kengash, mamlakat rivoji, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, haq va adl kabi masalalarni yoritishda obrazlar vositasidan unumli foydalangan. Maqsud Shayxzoda "Ilm-u ma'rifatning jo'shqin kuychisi" nomli maqolasida bu haqda shunday yozgan: "Alisher Navoiy o'z zamonasining eng ma'rifatli kishisi bo'lib, o'sha davrda ma'lum bo'lgan ilm va fanlardan xabardor edi. Xurofatga qarshi aql, bilim, muhokamaning qudratini qo'ygan Navoiy shu bilan birga ilm-u ma'rifatning charchamas tashviqotchisi edi. ...Ilm va olimlar haqidagi tushunchalarini Navoiy ikki shaklda ifodalagan: 1-nasihat, 2-badiiy obrazlar"(Shayxzoda M. G'azal mulkining sultoni. 5 jildlik. 4-jild.Toshkent. 1972. 12-bet).

Navoiy yaratgan yoki zikr qilgan obrazlardan biri, bu – hakimlardir. Hakimlar obrazida Navoiy M.Shayxzoda aytgan har ikki shakldan unumli foydalangan. Endi dastlab hakim atamasiga izoh bersak. Mazkur so'z islom ma'rifatida al-Hakim sifatida Ollohning 99 ismidan biri ma'nosini bildiradi. Navoiy asarlari matnida shu ma'noda ko'p qo'llagan. "Farhod va Shirin"da berilgan Shabdez tasvirida shu ma'noda ishlatganiga guvoh bo'lamiz:

*Ne qushkim, qushda yo'q bu nav'jismi,  
Hakimi sun'oni aylab tilismi.*

(Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 8-jild. Toshkent: 1991. 26-bet).

O'zbek, arab, fors, turk tili lug'atlarida yozilishi-cha, hakim arabcha so'z bo'lib, dono, oqil, donishmand, tabib, faylasuf kabi lug'aviy ma'nolarni bildiradi. Navoiy asarlari matnida ham xuddi shu ma'nolarda qo'llangan. Insonga xos donishmandlik xislati ma'nosida "Farhod va Shirin"da shunday bayt bor, unda daho shoir donolik ham Olloh bergan go'zal nasiba, taqdir bergan iqbol deb talqin qilgan:

*Burun qildi iqbol qismat menga,  
Ki yor o'ldilar aql-u hikmat menga.*

Navoiy hakimlarning tarixiy siymosini "Tarixi anbiyo va hukamo"da va "Mahbub ul-qulub"da gavalantirgan yoki zikr qilgan, alohida fiqralar bag'ishlagan. "Xamsa"da, xususan "Saddi Iskandariy"da yetti hakim ham tarixiy qahramonlar, ham badiiy personajlar sifatida tasvirlangan va ma'lum ma'noda "Tarixi anbiyo va hukamo"da zikr qilingan o'n uch nafar hakim bilan o'zaro mushtaraklik kasb etgan. Dostonida "Hikmat"(Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 11-jild. Toshkent: 1993. 75-76-betlar) nomli bob ham bor. Unda shoh Iskandar Arastu hakim bilan qurgan suhbat aks etgan. Navoiy "Tarixi muluki Ajam"-da Hushangni hikmat yozgan olim hukmdor sifatida tanishtirgan: "Hushang xiradmand va odil va olim podshoh erdi va "Jovidoni xirad" otlig' kitobni amali hikmatida ul tasnif qildikim, Ma'mun xalifa vaziri Hasan Sahl andin biror nima topib, arab tiliga tarjima qilibdur. Va shayx Bu Ali Miskavayh "Odob ul-arab va al-furs" otlig' kitobida ani zikr qilurkim, aning mutolaasi musannifining fazl-u kamolig'a dalildurur". "Saddi Iskandariy"da shoh Hushangning hakimligi va asari borasida shunday bitiklar ham yozgan:

*Yana bir jahondor Hushang edi,  
Ki zebandayi toj-u avrang edi.  
Anga yo'q xiradmandlig' ichra had,  
Bitib nusxaye "Jovidoni xirad".*

(Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 11-jild. Toshkent: Fan, 1993. 75-76-betlar).

"Nasoyim ul-muhabbat"da esa Al-Hakim at-Termiziy, Hakim ota, Hakim Sanoyi kabi hakimlarning ismi, laqabi atoqli ot bo'lib kelgan va ba'zilariga alohida fiqralar yozilgan hamda ularning zakiyligi ishora qilgan. Birinchidan, ular tilidan mutafakkir shoir o'zining boqiy fikrlari, o'lmas g'oyalarini olg'a

# Navoiy va

## Navoiyning

(Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-jild. Toshkent: Fan, 1997. 126-bet).

Bayt poetikasidan ma'lumki, Navoiy takror san'ati yordamida bu hikmatni takror qo'llagan hamda u bu kelimli-ketimli dunyoda insonlar o'tmishni ko'p gapirmasligi hamda kelajakka ko'p umid qilmasdan, bugundan ogoh bo'lishi va obod qilishi xususida nasihat qilgan(Rajabova. B. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi// Mushtarak adabiy hodisalar. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. 93-bet). Navoiy "Bir turk bu ma'nida debdurkim" deganda turkka mansub hakimlardan birini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Endi "Tarixi muluki Ajam"da yozilgan Luqmoni hakim ma'lumotlariga diqqat qilsak. Unda Luqmoni hakim haqida ikkita hikoyat berilgan. Luqmon – ba'zi tarixiy manbalarda payg'ambarlar, ba'zilarida esa hakimlar qatorida eslanadi. Rivoyatlarga qaraganda, u bir mulkdorning quli bo'lib, ozod bo'lishi haqida bir qancha rivoyatlar bor. Jumladan, Luqmonning xojasi – qo'y so'yib yaxshiroq a'zosini pishirib kel deb buyuribdi. Luqmon qo'yning yurak va tilini pishirib keltiribdi. Boshqa safar xojasi – qo'y so'yib yomonroq a'zosini pishirib kel, – debdi. Luqmon yana yurak va tilni keltiribdi. Xoja buning ma'nosini so'raganda, Luqmon debdi: ko'ngul noloyiq fe'l-atvordan, til keraksiz so'zlardan beri bo'lsa, ulardan yaxshiroq a'zo yo'qdir, agar bo'lmasa, ulardan yomonroq'i yo'qdir. Luqmon to'rt mingdan ziyod hikmat aytgan bo'lib, undan ikkitasini doim yodda saqlab ikkitasini unutish kerak ekan. Chunki avvalgi ikkitasi – o'zi qilgan yaxshiliklar, keyingi ikkitasi boshqalar qilgan yomonliklar haqida. Qadimgi manbalar Luqmon bilan bog'liq ba'zi rivoyatlarni mil.avv. VI asrda yashagan mashhur yunon masalchisi Ezopga nisbat beradi va aql-u zakosi, donoligi bilan qullikdan ozod bo'lish voqeasi har ikki hakim hayotida bir xil kechgani kuzatiladi. Luqmon hakimga xojasi yerni ko'rsatib, bug'doy ek, debdi. U kunjut(ba'zi hikoyatlarda arpa ekani aytiladi) ekadi. Vaqt kelib ekin pishig'ida xoja kelib qarasa, bug'doy ek, deb ko'rsatgan ekin maydonida kunjut yetilibdi. Xojaning g'azabi kelib deydi: senga bug'doy ek, degan edim-ku, kunjut ekibsan? Shunda Luqmon xojasiga men bug'doy ekan joyda kunjut ham unadi, debman. Axir sen qul va xizmatkorlarga qattiq zulm qilasan, haqqini bermaysan, ammo ibodatida Ollohdan jannat so'raysan, deydi. Xoja uning bu aql-zakovatidan, farosatidan uyalib, tavba yo'liga kiradi, unga ozodlik xatini beradi. Ezop bilan bog'liq hasbi hol tarixida xuddi shunday holat yuz bergan. O'z aqli, farosati bilan qullikdan ozod bo'lgan ikki hakim jasoratini o'zaro mushtarak adabiy hodisa sifatida baholash mumkin. Yana Navoiy Luqmon hakim haqida maqolotlar ko'pligi va ularni o'qib-o'rgangani haqida ham alohida izoh yozgan: "Luqmonning g'arib holoti va nofi' maqoloti ko'ptur. Bu muxtasarda muncha bila qanoat qilildi".

### Fishog'urs hakim.

1. Fishog'urs hakim Luqmoni hakimning shogirdi.
2. Ba'zilar Gushtosb hukmronligi davrida yashagan degan taxminiy ma'lumotni gapirgan, ammo Navoiy boshqa fikr aytgan, uni quyida keltiramiz.
3. Musiqi ilmi bilimdoni.
4. U soz ixtiro qilgan.
5. Ikkita hikmatini tamsil qilgan: "Aning so'zlari-dindurkim, kishi o'z madhin desa, chin dog'i bo'lsa, nopisanddur va o'tkonlar bila ont ichmak yolg'on nishonasidur va musibatqa sabr qilmoq shamotat qilg'uchining musibati".
6. Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da Gushtosb zamonida emas, balki Kayxisravning hukmronligi davri-

surgan bo'lsa, ikkinchidan, halimlik bilan mav'izalarni aytgan hamda tavsiya va ko'rsatmalar bergan.

Ma'lumki, Navoiyga qadar ham hakimlar haqida turli qissa, hikoyat va rivoyatlar mavjud bo'lgan. Masalan, arab tarixchisi va adibi Ibn al-Qiftiy hakimlar haqida "Kitob axbar al-ulamo bi-axbor al-hukamo" ("Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi")asari "Tarix al-hukamo"("Hakimlar tarixi") nomi bilan mashhur. Kitobda muallif qadim zamonlardan to o'zi yashagan davrga qadar yashab o'tgan 414 hakim, olimning tarjimaiy holini bergan.

Hakimlar obrazi misolida uning "Tarixi anbiyo va hukamo" asariga murojaat qilsak. Navoiy bu asarini 1485–1498(1499)-yillar orasida yozgan. Unda Odam Atodan boshlab oltin olti nafar payg'ambar va o'n uch nafar hakim to'g'risida qisqa va qiziqarli ma'lumotlar bayon qilingan(Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. MAT. 8-jild. Toshkent: 2000. 190–194-bet).

Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo"ning "Hukamo zikri" nomli ikkinchi qismida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlarga fiqra bag'ishlagan. Bu qism Luqmoni hakim haqidagi ma'lumot bilan boshlangan. Navoiy uni kitobning ham payg'ambarlar, ham hakimlar zikrida tilga olgan: "*Chun Luqmonning hikmati va nubuvvati orasida ixtilofdur. Va aksar el ani nabi debdur. Anbiyo zumrasida bitildi va hukamo orasida ham mazkur qilildi. Va andin bir-iki so'z bila mazkur qilinur. Ul debdurki, borcha yukni torttim, burchdin og'irroq yuk ko'rma-dim va borcha lazzatni tottim, ofiyatdin chuchukrok sharbat totmadim, xushxo'y yotlarga qarobatdur va badxo'y qarobatlariga yot. Andin so'rdilarkim, ne nimadurkim, foydasi borcha xaloyiqqa teyar? Dedi-kim, yomonlarning yo'qlug'i. Va aning umri yuqori bitilibdur*", deb Luqmoni hakim fiqrasiga ishora qilgan. Navoiy burch tushunchasiga aniq ta'rif bergan. "Tarixi muluki Ajamda uning ikkinchi tabaqaga mansub kayoniy hukmdor Qayqubod zamonida yashaganini alohida yozgan: "*Va Luqmoni hakim va Ashmuil alayhissalom va Tolut aning zamonida erdilar*". Navoiy "Saddi Iskandariy"ning 73-bobida Luqmoni hakimga alohida murojaat qilgan. Fiqra xulosasini Navoiy bayt shaklida yozgan bo'lib, "dam bu damdur" xalqona sayyor hikmatini mahorat bilan qo'llagan: She'r:

*Yoshing Luqmondin ar xud bo'lmasa kam,  
Chu borg'ungdur borur damdur hamul dam.*

Lirik chekinish bilan mazkur sayyor hikmatni biroz izohlasak, "*Dam bu damdir*", "*borur damdur hamul dam*" – xalqona sayyor hikmat, xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan badiiy qolip yoki folklorshunoslar, xususan, Bahodir Sarimsoqov tili bilan aytganda uslubiy formula. Xalq dostonlari, jumladan, "Alpomish" dostoni matnida, ya'ni Yortiboy oqsoqolning Boysariga qarata aytgan "*Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema*" yoki Boybo'ring o'g'li Alpomishga qarata aytgan "*Dam shu damdir, o'tgan damni dam dema, Rostin aytsam, shu davlatni kam dema*" kabi nasihatlarida ham uchraydi(Alpomish. – Toshkent: Yozuvchi, 1999. 27-bet). Alpomishning asl ismi ham Hakimbek ekanini eslaylik. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning 124-tanbehida bitgan bir turk(xalq vakili) so'zi shaklida yozadi va ushbu xalqona sayyor hikmat asosida shohbayt yaratgan: "*Bir turk bu ma'nida debdurkim: "Dam bu damdur*". Bayt:

*Moziy-u mustaqbal ahvolin takallum ayta kam,  
Ne uchunkim dam bu damdur,  
dam bu damdur, dam bu dam.*



# hakimlar

## yunon hakimlari



da yashaganini yozgan: “Kayxisravning podshohlighi oltmish yil erdi. Zamonida anbiyodin Sulaymon alay-hissalom va axbordin Siluni va hukamodin Fishog’urs erdilar”.

### Jomosb hakim.

1. Jomosb hakim hukmdor Gushtosbning qardoshi.
2. U Luqmoni hakimning shogirdi.
3. Nujm ilmi yuzasidan ahkomi bor.
4. Karim va laim tushunchasi haqida so’z aytgan: “Va aning so’zlaridindurkim, karimning yomonroq xislati o’z ilmining tarki va laimning yaxshiroq xislati o’z ilmining tarki”.

5. Qabri-madfani Fors viloyatida. Ma’lumki, Fors viloyatiga Ahamoniylar sulolasi asos solgan. Markazi – Sheroz. Eron janubidagi tarixiy viloyat.

6. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da u Gushtosb zamonida yashaganini yozgan va “...zamonning saromadi erdi” deb sharaflagan: “Va hukamodin Suqrotkim, Fishog’urs tilmizi erdi va Jomosbkim, zamonning saromadi erdi, Gushtosb zamonida erdilar”. Navoiy “Farhod va Shirin”da Jomosb hakim qalamiga mansub “Jomospnoma” kitobini ham tilga olgan. Navoiy Suqrot g’origa borayotganlarga Suhaylo hakim “Jomospnoma”dan Farhodga tole yulduzi baland ekanini bayon qilgan.

### Buqrot hakim.

1. Buqrot hakim Fishog’ursning shogirdi.
2. U hukmdor Bahman davrida yashagan.
3. Tib ilmi bilimdoni, “Fusuli Buqrot” nomli asar muallifi.

4. Umr mazmuni, oqil ishi, oxirat maslahati va Olloh rizosini topish haqida hikmat aytgan: “Ul debdurkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg’aykim, zaruratroqdur, ya’ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi”. Navoiyning o’zi ham bayt xarakterida xulosa bitgan. Asli Gippokrat ajam xalqlari orasida Buqrot, Abuqrat nomi bilan tanilgan. Gippokrat (mil.avv. 460–375) – mashhur yunon hakimi, tib ilmining asoschilaridan biri. U nasab va hasabda mashhur, ya’ni Yunonistonda mashhur bo’lgan shifokor Gippokratlar sulolasining o’n sakkizinchi avlodi sanaladi. Uning “Kitob al-fusul”(“Aforizmlar”) nomli kitobi juda mashhur. “Gippokrat qasamyodi” – shifokor burchi va xulq-atvorining qisqacha ta’rifi shu hakim qalamiga mansub deb hisoblanadi. Buqrotning ilmiy ishlari qatori yana falsafiy, axloqiy, tarbiyaviy yo’nalishda asarlar yozgan.

### Buqrotis hakim.

1. Buqrotis hakim Buqrot hakim shogirdi.
2. Yaxshi so’z va chiroyli husnixat haqida hikmat aytgan: “Aning so’zlaridindurkim, sharif ilm ko’ngulda qaror tutmas, taxsis nimalar ko’nguldin chiqmas. Yaxshi so’z ko’ngulni yorutur va yaxshi xat ko’zning

ne’mati arusidurkim, aning mahri shukrdur. Va ozkim poydor bo’lg’ay ko’bdin yaxshiroqni nopoydor bo’lg’ay”. Uning bu nasihati Boburning bu boradagi pandini eslatadi. U ham ota sifatida “Boburnoma”da o’g’li Humoyunga husnixati uchun tanbeh bergani va chiroyli yozishga undagani haqida ma’lumot yozgan.

### Suqrot hakim.

1. Suqrotisning shogirdi.
2. Hukmdor ayol Humoy binti Bahman davrida yashagan.
3. Navoiy uning quyidagi nasihatlarini tamsil qilgan: “Va aning so’zlaridindurkim, nodong’a tavozu qilmoq hanzalg’a suv bermakdurkim, necha ko’p ichsa, talxroq bo’lur. Sa’y ishikim, o’z yerinda bo’lmag’ay, qilur ishda kohil(sustlik, tanballik yoki yalqov)likdin (Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug’ati. Toshkent: Fan, 1972. 320-bet) yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig’in bilsa bo’lurkim, ne poyadadur”.

### Aflotun hakim.

1. Suqrotning shogirdi.
2. Hukmdor Dorob zamonida tanilgan. Nomi chiqqan.
3. Iskandari Rumiyning musohibi, suhbatdoshi bo’lgan.
4. Saroy hakimlarining boshlig’i bo’lgan, Navoiy tili bilan aytak “hakimi olihi erdi”.

5. Podshohlarning chog’ir ichmasligi, uning sabab va oqibati xususida hikmat aytgan: “Va aning so’zlaridindurkim, podshohg’a chog’ir ichmak haromdur, nevchunkim, ul mulk va raiyyatning nigohbonidur. Nigohbonkim, anga nigohbon kerak bo’lg’ay, yaxshi bo’lmag’an. Mufliksi, o’zin g’aniy tutqay dijamdek-durkim o’zin semiz ko’rguzgay. Jud tilaman bermakdur, nevchunki, tilab bergan tilaganning mukofotidur”. Aflotun hakim – Platon – asl nomi Aristotel(mil.avv. 428/ 427. Afina – 348/347) – qadimgi yunon faylasufi. 407-yillarda Sokrat(Suqrot) bilan tanishib, uning eng yaqin shogirdiga aylangan. Afina mashhur faylasuflar maktabi – “Platon akademiyasi”ni yaratgan. Xamsanavis shoirlar shoh Iskandar atrofidagi hakim, olimlar orasida Aflotunga alohida o’rin ajratgan, uni donishmandlar – hakimlar rahbari sifatida ta’riflagan. Yuqorida yozganimizdek, Navoiy “Saddi Iskandariy”da “Hikmat” nomli bob yozgan(Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 11-jild. Toshkent: 1993. 75-76-betlar). Unda Iskandar Arastu hakim bilan suhbat qurgan.

### Aristotolis hakim.

1. Aflotunning shogirdi.
2. Shoh Iskandarning vaziri.
3. Podshohlarga ta’rif bergan va ularni katta daryoga, xalqni esa anhora qiyoslagan: “Aning so’zlaridin

budurkim, podshoh ulug’ rudg’a o’xshar va atbon arig’larg’akim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud sunig’a har hol bo’lsa, arig’larg’a hamul holdur. Ul chuchuk bo’lsa, bular chuchuk; Ul achig’ bo’lsa, bular achig’; Ul sof bo’lsa, bular sof; Ul loy bo’lsa, bular loy. Pas, podshohg’a vojibdur – g’oyat hikmat va e’tidol bila maosh qilmoq, to xayl va hashami anga mutobaat qilgaylar”. Navoiy bu o’rinda ham shoir, ham davlat arbobi sifatida o’z xulosasini shunday poetik talqin qilgan:

Shoh daryo va xalq erur anhor,  
Ikisining suyig’a bir maza bor.

### Balinos hakim.

1. Aristotolisning shogirdi.
2. Iskandar minorasini yasagan.
3. Hukmdorlarning mulkni barqaror saqlashi yoki barbod qilishi xususida aytgan hikmatini keltirgan: “Va aning so’zlaridindurkim, podshoh kerakkim, borchha eldin nima olgay, ammo e’tidol bila, to mulk barqaror bo’lg’ay. Yo’qki, borchag’a nima bergay bee’tidolliq bila, to mulk buzulg’ay”.

### Jolinus hakim.

1. Balinosning shogirdi.
2. G’am va jon anduhi haqida so’z aytgan: “Va aning so’zlaridindurkim, anduh jon bemorlig’idur. Bemorkim, ishtahasi bo’lg’ay, ul tandurustdin yaxshiroqdurkim, ishtahasi bo’lmag’aykim, anga sihat ortar va munga ranj”. Sharqda Jolinus hakim aslida qadimgi Rim vrachi va tabiatshunosi Galen Klavdiy. Tib va falsafa ilmiga oid ko’plab asarlar yozgan.

### Batlimus hakim.

1. Jolinus shogirdi.
2. Qobil insonlarning baxti fahm-u farosatida ekanini yozgan hamda nekbaxt va badbaxtga ta’rif bergan: “Va aning so’zlaridin bukim, qobilning saodati budurkim, fahim bo’lg’ay. Nekbaxt uldurkim, el holidin pand olg’ay va badbaxt ulkim, aning holidin el pand olg’aylar”. Batlimus asli yunon faylasufi Ptolemeyning Ajam xalqlari orasidagi nomi. U ikkinchi tabaqaga mansub shoh Iskandar ma’lumotida tilga olingan: “Va Rumda Batlimusni qaysar qildilar, vallohu a’lam. Va muluki tavoyifni Eron zaminda ul tayin qildi. Uch yuz oltmish yilg’acha alar ichin aro nizo qilib, Rung’a hech qaysining zarari yetmadi”.

### Sodiq.

1. No’shiravon odil zamonida yashagan.
2. No’shiravon odilga nasihatnoma bitgan: “Bu mufrid so’z aning so’zlaridindurkim, shoh va gadog’a foydasi omdur. “Lo t’kul taoman va fi me’datika taomo’n”. Mazmuni: Me’dangda taom bo’la turib, taom yema”.

### Buzurjmehr.

1. No’shiravon odilning vaziri.
2. “Yigitlik va qarilikda nima qilgan yaxshi amal?” degan savolga hikmat aytgan: “Aning so’zlaridindurkim, ustodimdin so’rdimkim, yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig’da ne qilmoq yaxshi? Dedikim, – yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig’da ani amal’g’a kelturmak yaxshidir”. Navoiy xulosasi ham misli hikmat darajasida bayon qilingan:

Yigitlig’da yig’ ilmning maxzani,  
Qarilig’ chog’i xarj qilg’il ani.

Xulosa shuki, Navoiy qadimgi yunon va Ajam xalqlarida mashhur hakimlar obrazini o’zbek adabiyotiga olib kirdi hamda ilm, ma’rifatni targ’ib qildi. Akademik V.Zohidov so’zlari bilan e’tirof etsak, Navoiyning yunon hakimlariga aylandi. O’z xulosalarini nazmda ta’sirli bayon qildi. Inson tarbiyasi va fazl-u kamolotida hakimlar yozgan hikmatlarning o’rni balandligini ko’rsatib berdi. Ma’lum ma’noda Temuriylar davrida rivojlangan fanlar tizimini ham tasvirladi.

Xullas, Maqsud Shayxzoda yozganidek, “Faylasuf shoirdir, hikmatparast u, Unga yor Aflotun, Luqmon, Arastu!”

Burobiya RAJABOVA,  
O’z FA o’zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti yetakchi ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari nomzodi



## Asl xazina



Bugungi globalashuv davrida insoniyat “texnologik taraqqiyot” va “ruhiy bo’shliq” o’rtasidagi ziddiyatda qoldi. Depressiya, apatiya va o’zlikni yo’qotish kabi zamonaviy illatlar ko’paygan bir paytda g’arb psixologiyasi xorijiy modellarni taklif qilmoqda. Biroq har bir millatning o’z ruhiy immuniteti bo’ladi. O’zbek xalqi uchun bu immunitet, masalan, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida yashiringan. Bunday deyishimizga sabab shuki, u o’quvchining ongostiga ta’sir qilib, undagi madaniy va axloqiy tayanchni qayta tiklaydi. Maqolada ushbu mumtoz asarning qaysi jihatlarini shifobaxsh ekanini besh xil rakursda ko’rib chiqamiz.

# “O’tkan kunlar”ning ruhiy shifosi

## Raqamli dunyoda Qodiriyga qaytish

### Arxiv terapiyasi: tarixiy xotira – ruhiy barqarorlik asosi

Inson o’zining kimligini bilmasa, shamolda uchgan xazondek bo’ladi. “O’tkan kunlar” o’quvchini XIX asr Turkistoniga – milliy g’urur va aslzodalik ufurib turgan muhitga qaytaradi.

**1. O’zlikni tanish(identity therapy).** Psixologiyada inson o’z ajdodlari va o’tmishi bilan faxrlanganda uning o’ziga bo’lgan ishonchi(self-esteem) 30–40 foiz ortishi isbotlangan. Qodiriy asarida o’zbek xalqining kiyinish madaniyati, so’zlashish odobi va hatto savdo-sotiq etikasi shunday tasvirlanganki, o’quvchi o’zining qanday buyuk madaniyat vorisi ekanini his qiladi. Bu – tushkunlikka tushgan zamondoshimiz uchun eng yaxshi “malham”.

**2. Nostalgiya va uning shifobaxsh kuchi.** Roman sahifalaridagi eski Toshkent, Marg’ilon bog’lari, choyxona va hovlilar tasviri o’quvchida “xavfsiz joy”(safe place) hissini uyg’otadi. Bu psixoterapevtik usul inson ongida tinchlik va osoyishtalik obrazlarini yaratish orqali xavotir(anxiety) darajasini pasaytiradi.

### Qahramonlar psixotipi va shifo turi

“O’tkan kunlar” qahramonlari shunchaki badiiy obrazlar emas, ruhiyatimizdagi turli qirralarning in’ikosidir.

**Otabek(matonat va intellekt timsoli).** Otabek o’z davrining “supermen”i emas, jonli, xato qiluvchi, lekin hamisha ezgulikka intiluvchi inson. Uning irodasi, ayniqsa, sevgi yo’lidagi qat’iyati bugungi yoshlar uchun “psixologik kouching” vazifasini

o’taydi. U bizga qiyinchilik oldida tiz cho’kmaslikni, hatto eng og’ir damlarda ham aslzodalikni saqlab qolishni o’rgatadi.

**Kumushbibi(nafosat va ichki kuch).** Kumush timsoli – ayollik latofatining cho’qqisi. Uning sabri, ibosi va maktublaridagi samimiyat o’quvchi ayollarda o’ziga xos “nazokat terapiyasi”ni o’taydi. Hozirgi kunda ayollari tajovuzkor va “erkaklashgan” jamiyatda Kumush obrazi ularga o’zining asl tabiatini eslatadi.

**Yusufbek hoji(donolik va oila ustuni).** Oila psixologiyasida ota figurasi juda muhim. Yusufbek hoji obrazi – adolat va muvozanat markazi. Uning nasihatlarini, xalq dardi bilan yashashi va o’g’li bilan muloqot madaniyati zamonaviy oilalardagi nizolarni hal qilish uchun tayyor qo’llanmadir.

### “Bibliotil” yoki Qodiriyning “leksik sehr”i

Matnning o’zi ham fizika, ham psixologiya qonuniyatlari asosida ishlaydi. Qodiriy jummalari muayyan ritmga ega:

- **ritmik mutolaa.** Asarni ovoz chiqarib o’qiganda o’pkada nafas aylanishi tartibga tushadi. Murakkab va go’zal tasvirlar o’quvchini “chuqur o’ylash”(deep work) holatiga olib kiradi. Bu diqqatni jamlash(focus) muammosi bor insonlar uchun ajoyib mashqdir;

- **eskirmaydigan so’zlar sehri.** “Istihola”, “tavoze”, “muruvvat” so’zlarining ma’nosini anglash jarayonida miyada yangi neyron aloqalari hosil bo’ladi. Til – fikrlashning asosi. Agar til go’zal bo’lsa, fikr ham go’zallashadi. Qodiriy asari o’quvchini ma’naviy “kirlanish”dan tozalaydi.

gan. Bu ota-onalar uchun tarbiya darsligidir.

### Qayg’u orqali ruhiy poklanish

Ko’pchilik savol beradi: “Nega fojia bilan tugaydigan asar shifo bo’lishi mumkin?”. Javob: chunki unda katarsiz bor.

Aristotel ta’riflaganidek, fojia o’quvchini qo’rquv va achinish hissi orqali ruhiy poklanishga olib keladi. Kumushning vafoti sahnasida o’quvchi yig’lar ekan, uning ichida to’planib qolgan “muzlagan tuyg’ular” eriy boshlaydi. Psixologiyada bu “emotsional bo’shashish” deyiladi. Odam o’z dardini qahramon dardi orqali tashqariga chiqarib yuboradi.

### Xulosa

“O’tkan kunlar” shunchaki o’qib qo’yiladigan kitob emas, milliy ruhiyatimizning “tesha tegmagan” xazinasini. Uni “terapiya muolajasi” sifatida qabul qilish uchun yangicha yondashuv kerak:

- 1) **oila davrasida mutolaa** oilaviy aloqalarni mustahkamlaydi;
- 2) **maktablarda tahliliy o’qish** bolalarda empatiya(hamdardlik) hissini shakllantiradi;

- 3) **badiiy meditatsiyada** asardagi go’zal tasvirlar ko’z oldiga keltirilib, ichki xotirjamlikka erishiladi.

Siz bu ulkan asarning qaysi bobi yoki qaysi qahramoni orqali o’z ichki dunyongizdagi savollarga javob topgansiz? Balki bugun o’sha javon chetidagi qadrdon kitobni qayta qo’lga olish, o’zingiz va mil-latingizni qayta kashf etish vaqti kelgandir? Zero, Abdulla Qodiriy aytganidek, o’tmishimizga qarab kelajagimizni quramiz. Bu yo’lda “O’tkan kunlar” ham mayoq, ham malham bo’lib xizmat qilaveradi.


Xosiyat SUVONOVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
59-IDUM oliy toifali o’qituvchisi

### Ijtimoiy va oilaviy ixtiloflar terapiyasi

Roman eng qiyin ijtimoiy tugalarni ko’rsatadi va oqibatlarini tahlil qiladi:

- ♦ **hasad va uning halo-kati(Zaynab fojiasi).** Zaynab obrazi orqali adib hasadning inson ruhiyatini qanday yemirishi va uni jinoyatga yetaklashi mumkinligini ko’rsatib beradi. Bu o’quvchi uchun “profilaktik ogohlantirish”dir;

- ♦ **kattalar xatosi(O’zbek oyim).** Farzand taqdiriga o’ylamay aralashish qanday fojialarga olib kelishi asarda mahorat bilan chizil-



### KIRISH

Insoniyat tamadduni tarixida so’z har doim ham bunyodkor, ham vayronkor kuch sifatida e’tirof etilgan. Ammo so’zning “shifobaxshlik” xususiyati zamonaviy dunyoda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy yoki ekologik, hatto “ma’no inqirozi” davrida ham yashayapmiz. Bunday sharoitda adabiyotshunoslikning sof nazariy qobiqdan chiqib, amaliy hayot, xususan, inson salomatligi va ruhiy farovonligiga xizmat qilishi davr talabidir. Adabiy terapiya (biblioterapiya) shunchaki kitobxonlik emas, badiiy matn vositasida inson ongi va his-tuyg’ularini qayta tiklash, ichki ziddiyatlarni bartaraf etish hamda ijtimoiy adaptatsiyani ta’minlashning yuqori texnologik usulidir.

### BIBLIOTERAPIYANING NAZARIY POYDEVORI VA TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Adabiyot bilan davolashning ildizlari qadimgi dunyo sivilizatsiyalariga borib taqaladi. Qadimgi Yunonistonda teatr tomoshalari va drama asarlari “katarzis” – ruhiy poklanish jarayoni sifatida ko’rilgan. Arastu ta’riflaganidek, inson fojiaiy qahramonning dardiga sherik bo’lish orqali ichidagi qo’rquv va iztiroblardan xalos bo’ladi.

O’rta asrlar Sharqida bu yo’nalish yanada falsafiy mazmun kasb etdi. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari”da ruhiy holatning tana a’zolariga ta’sirini tushuntirar ekan, go’zal nutq va badiiy tasvirning asab tizimini tinchlantiruvchi xususiyatini qayd etgan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari mohiyatiga ko’ra inson ruhining yetti vodiidan o’tib, o’zligi(Simurg’ni topishi haqidagi eng mukammal terapevtik sayohatdir.

XIX–XX asrlarga kelib biblioterapiya g’arbda psixiatriya va psixologiyaning ajralmas qismiga aylandi. Benjamin Rush(AQSH) va Samuel Krotors kabi olimlar shifoxonalarda kitobxonlikning bemorlar reabilitatsiyasidagi o’rnini ilmiy isbotlab berdilar. Bugungi kunda bu soha **adabiyotshunoslikning amaliy tarmog’i** sifatida raqamli gumanitar fanlar bilan uyg’unlashmoqda.

### ADABIY MATNNING PSIXOFIZIOLOGIK TA’SIR MEXANIZMLARI

Nima uchun kitob o’qish dardimizga shifo bo’ladi? Bu savolga zamonaviy neyrofilologiya va psixolingvistika bir necha javobni taklif etadi:

- **neyron aks-sadosi.** Inson asar qahramoni boshidan kechirayotgan voqealarni o’qiyotganda, miyasida xuddi o’sha harakatlarni o’zi bajarayotgandek neyronlar faollashadi. Bu empatiya(hamdardlik) qobiliyatini oshiradi va hissiy izolyatsiyadan qutqaradi;

- **narrativ identifikatsiya.** Inson o’z hayotini ham bir hikoya(narrativ) sifatida ko’radi. Badiiy asardagi qahramonning muvaffaqiyatli “syujeti” kitobxonning o’z hayotiy “matni”dagi xatolarni tahrir qilishi, yangi mazmun topishiga yordam beradi;

- **leksik “malham”.** So’zlarning semantik maydoni inson gormonal tizimiga ta’sir qilishi aniqlangan. Masalan, dinamik, yorug’ bo’yoqlarga boy matnlar



# terapiya va ruhiy muvozanat regeneratsiyasi

tushkunlikka tushgan odamning serotonin darajasini oshirishga ko'maklashadi.

## O'ZBEK ADABIY MEROSI – MA'NAVIY REABILITATSIYA MANBAYI

O'zbek adabiyoti o'zining genezisidan boshlab terapevtik xarakterga ega. Mumtoz adabiyotimizdagi tasavvufiy yo'nalish insonni dunyo tashvishlaridan ustun turish va ichki xotirjamlikka o'rgatadi. Masalan:

- **Navoiy hikmatlari.** “Mahbub ul-qulub” asari o'zining qisqa va lo'nda o'gitlari bilan insonning ijtimoiy xulq-atvorini “tahrir” qiluvchi eng yaxshi “psixologik trening” kitobidir;
- **jadidlar adabiyoti.** Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy asarlari milliy o'zlikni anglash orqali “ijtimoiy depressiya”dan chiqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Masalan, “O'tkan kunlar” asarini o'qish jarayonida kitobxon milliy g'urur va sadoqat tuyg'ularini regeneratsiya qiladi;
- **zamonaviy she'riyat.** Rauf Parfi, Shavkat Rahmon kabi shoirlarning she'rlaridagi metaforalar insonning bo'g'ilgan hislarini yuzaga chiqarish(abreaksiya)ga xizmat qiladi.

## AMALIY METODIKA

Adabiy terapiya amaliyotida “kitob tanlash jadvali” muhim o'rin tutadi. Mutaxassislar quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishgan:

| Ruhiy holat          | Tavsiya etiladigan janr/yo'nalish | Terapevtik natija                       |
|----------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------|
| Qo'rquv va xavotir   | Ertak va afsonalar                | Xavfsizlik hissi va mo'jizaga ishonch   |
| Yo'qotish dardi      | Elegiya va falsafiy liro-epika    | G'amni qabul qilish va yengillashish    |
| Ijtimoiy loqaydlik   | Tarixiy romanlar va dramalar      | Mas'uliyat va hayotiy maqsad uyg'onishi |
| Stress va charchoq   | Detektiv va sarguzasht asarlar    | Diqqatni ko'chirish va relaksatsiya     |
| O'ziga ishonchsizlik | Avtobiografiyalar (Memuarlar)     | Motivatsiya va ijobiy namuna topish     |

## BIBLIOTERAPIYANING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Bugungi kunda adabiy terapiya faqat an'anaviy kitob o'qish bilan cheklanmaydi. U yangi interaktiv shakllarga ega bo'layotir:

**guruhli muhokamalar.** Kitobxonlar klublarida asarni birgalikda tahlil qilish ijtimoiy yolg'izlikni bartaraf etadi;

**audioterapiya.** Sifatli ovozlantirilgan asarlarni tinglash uyqusizlik va asabiy taranglikda samarali yordam beradi;

**raqamli biblioterapiya.** Mobil ilovalar orqali foydalanuvchining psixotipiga mos “kunlik matnlar”ni taqdim etish;

**creative writing (Ijodiy yozish).** Insonning o'z dardi haqida hikoya yoki she'r yozishi – eng kuchli terapevtik usullardan. Bu jarayonda inson o'z muammosining “egasi”dan uning “muallifi”ga aylanadi.

## NEYROFILOLOGIYA

Adabiy terapiya faqat gumanitar tushuncha emas, qat'iy biologik asoslarga ham ega. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, inson badiiy matnni o'qiyotganda miyaning nafaqat til markazlari(Broka va Vernike sohalari), hissiy va sensor markazlari ham faollashadi. Masalan, asarda biror mevaning hidi yoki bog'ning ifori tasvirlangan bo'lsa, miyaning hid bilish uchun mas'ul neyronlari xuddi o'sha hidni real hayotda tuyayotgandek

signallar bera boshlaydi. Bu fenomen “simulyatsiya qilingan tajriba” deb ataladi. Inson miyasi hayotiy tajriba bilan badiiy matndan olingan tajribani bir-biridan deyarli ajratmaydi. Shuning uchun tushkunlikka tushgan bemorga “muvaffaqiyatli yakun topuvchi” qahramon haqidagi asarni o'qish tavsiya etilganda miyasi ushbu g'alabani o'ziniki sifatida qabul qiladi. Bu organizmda dofamin va endorfin gormonlari ajralishini rag'batlantiradi. Amaliy adabiyotshunoslik bu jarayonni tizimlashtirib, qaysi turdagi metaforalar qaysi ruhiy bloklarni ochishga xizmat qilishini tadqiq etadi.

## MUMTOZ O'ZBEK ADABIYOTIDA “RUH MUOLAJASI”

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, deyarli barcha buyuk mutafakkirlarimiz so'zning shifobaxshlik xususiyatidan foydalanganini ko'ramiz.

**Alisher Navoiyning “Xamsa”si – ruhiy transformatsiya ensiklopediyasi.** Navoiyning “Farhod va Shirin” asari faqat ishqiy qissa emas, “mehnati qattiq”

insonning ruhiy quvvati qanday qilib tog'larni tolqon qilishi mumkinligi haqidagi darslikdir. Farhodning Armaniston tog'larida ariq qazishi, psixologik tilda aytganda, “sublimatsiya”(og'ir ruhiy energiyani foydali mehnatga yo'naltirish) jarayonidir. Depressiyadagi inson uchun Farhodning irodasi eng yaxshi terapiya namunasi bo'la oladi.

**Mashrab va so'fiylik she'riyati – hissiy bo'shash(abreaksiya).** Boborahim Mashrabning isyonkor va “telbavor” she'rlari insonni jamiyatning qattiq qoliplaridan, sun'iy cheklovlardan xalos etishga xizmat qiladi. Uning “O'rtar” radifli g'azali yoki otashin ruboiylari inson ichida “qamalib qolgan” dardni portlatib chiqaradi va kishini ruhiy erkinlikka olib keladi.

## NARRATIV TERAPIYA

Amaliy adabiyotshunoslikning eng muhim metodlaridan biri – **ijodiy yozish(creative writing)**. Bunda inson shunchaki kitobxon emas, ijodkorga ham aylanadi. Psixologik jarohat olgan shaxslarga o'z dardlarini uchinchi shaxs nomidan hikoya qilib yozish vazifasi beriladi.

Nega bu samarali? Chunki inson o'z dardini qog'ozga tushirganda muammodan masofalashadi. “Men azob chekyapman” degan qarash o'rniga “Qahramon azob chekyapti” degan pozitsiya shakllanadi. Bu “eksternalizatsiya”(muammoni tashqariga chiqarish) deb ataladi. Inson o'z hayoti sujetini o'zgartirishga qodir ekanligini anglab yetgach real hayotdagi qiyinchiliklarga ham ijodiy yondasha boshlaydi.



## BIBLIOTERAPIYADA JANRLAR IYERARXIYASI VA PEDAGOGIK INTEGRATSIYA

Adabiy terapiyani ta'lim tizimiga kiritish yosh avlodning ruhiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kunda o'smirlar orasida “bulling”(tazyiq), yolg'izlik va internetga qaramlik kabi muammolar ko'paygan. Maktab darsliklarida faqat asarning g'oyasini o'rganish bilan cheklanmasdan, uning “mening hayotimga qanday daxli bor?” degan savolga javob izlash amaliyotini joriy qilish kerak:

- **lirik chekinishlar.** Talabalarga dars jarayonida o'zlariga yoqqan she'rlarni o'qib berish va o'sha she'r qanday hissiyot uyg'otganini muhokama qilish “emotional intellekt”ni rivojlantiradi;
- **adabiy rollar o'yini.** Asar qahramoni o'rnida bo'lib ko'rish va uning muammosiga muqobil yechimlar taklif qilish o'quvchilarda qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

## “BADIY DORI” ILOVALARI VA ALGORITMLAR

Raqamli gumanitar fanlar(Digital Humanities) rivojlanishi bilan adabiy terapiya ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Tasavvur qiling, smartfoningizdagi ilova yurak urishingiz, ovozingizdagi titroq yoki yozgan statuslaringiz tahlili orqali sizning tushkunlikka tushayotganingizni aniqlaydi. Algoritm darhol o'sha lahzada o'qishingiz kerak bo'lgan 15 daqiqalik matn(masalan, biror hikoyadan parcha yoki optimistik she'r) va unga mos fon musiqani taqdim etadi. Bu fantastika emas, balki amaliy adabiyotshunoslikning yaqin kelajakdagi vazifasidir. Biz o'zbek tilidagi adabiy korpusni “hissiy teg”lar(emotional tags) bilan boyitishimiz va tibbiy-psixologik maqsadlarda qo'llashimiz lozim.

## XULOSA

Adabiy terapiya – nafaqat davolash usuli, millatning madaniy immunitetini oshirish vositasi hamdir. Kitob o'qigan millat tushkunlikka tushmaydi, yot g'oyalar ta'siriga berilmaydi va o'z muammolarini aql-zakovat bilan hal qiladi. Shuning uchun ham amaliy adabiyotshunoslikni shakllantirish, o'rganish va keng targ'ib qilish – har bir filologning, har bir ziyolining muqaddas burchidir.

Kutubxonangizni oching, u yerda “bemori”ni kuyotgan minglab shifobaxsh “dorilar” bor. Ular mudдати o'tmaydigan malhamlardir. Mutolaani bugun, hoziroq boshlang!

Baxtiyor MENGLIYEV,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti  
tadqiqotchi-professori









## Ta'kid

*Kimki buzar safhani bu nomadek,  
Bo'ynin oning uzsa bo'lur xomadek.*

Alisher Navoiy

Rekord – eng yuksak yutuq, oliy darajadagi kashfiyot ma'nolarini ifodalovchi so'z. Sportda, ilmda, kasb-hunarda, xullas hamma sohada rekord qo'yish mumkin.

Sportda rekord qo'ygan futbolchi, bokschi, yuguruvchi, polvonga katta sovrinlar, uy-joy, mashina beriladi.

Biroq ilmdagi rekordlar hamisha ham bunday taqdirlanmaydi... Aslida men o'ksimasam bo'ladi. Negaki, 1973-yili matnshunoslikdagi birinchi rekordim – Ogahiy asarlari matni yaroqsizligi haqidagi maqolamni (“Sharq yulduzi” 1973-yil 6-sonida e'lon qilingan “Nashr va mas'uliyat”) Sharof Rashidov o'qib, ikki ulug' olim – professor G'ulom Karimov va dotsent Subutoy Dolimov, nashriyot direktori Hamid G'ulom, bosh muharrir Tohir Ibrohimov va o'rinbosari Ibrohim G'afurovni Markazqo'mga suhbatga chaqirgan. Shu tufayli men 32 yoshli yigitcha Ogahiy “Asarlar”i III jildiga muharrir bo'lganman.

Bu voqeadan sal avval eng ulug' olimdan hayfsan olganman. Ogahiy asarlaridagi nuqsonlarni aytсам, ustoz G'ulom Karimov yuzimga qarab: “Siz o'zbek klassik adabiyotidan hech vaqoni bilmaysiz!”, degan. Biroq Sharof Rashidov Markazqo'mdagi suhbatda professorning bu odobsizligini yuziga solib uyaltirgani hech ko'z oldimdan ketmaydi.

Endi ikkinchi rekordim haqida. Ustoz Hamid Sulaymonovga “Xazoyin ul-maoniyy”(1959-1960)ning to'rt kitobi har birida yuzlab nuqsonlar borligini aytib, misollar ko'rsatganimda ustoz meni katta mablag' bilan siylagan. Shartnoma tuzib, 4 kitobni bosh-oyoq tahrir qilib berganim uchun Qo'lyozmalar instituti kassasidan menga 8000 so'm bergan. O'shanda yangi “Jiguli” avtomashinasining davlat narxi 7400 so'm edi.

Shundan buyon mumtoz adabiyotimiz nashri sahilgisi yo'lida xizmatdaman, o'nlab kitoblarni yozdim, nashrga tayyorladim, mas'ul muharrirlik, muharrirlik, ilmiy muharrirlik, maxsus muharrirlik, taqrizchilik faoliyatini olib bordim. Davlatimiz meni “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, “Oliy ta'lim a'lochisi” ko'krak nishoni, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan siyladi.

Biroq O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti navoiyshunoslari meni 50 yildan buyon o'zlariga raqib sifatida yomon ko'rishadi. O'z kitoblarida daroz, falonchi, qitmir chol, g'alamis deb haqorat ham qilishadi. Ularning alamzadaligi mening keskin maqolalarimga matbuotda javob bera olmaganidandir...

Darvoqe, bir safar “Adabiy idrok tantanasi” nomli (“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi) maqolamga Ibrohim Haqqulov “Sanamay sakkiz demaylik” sarlavhali raddiya e'lon qilib adabini yegan edi. Unga Nusratulla Jumayev “Bahsdan maqsad – haqiqat” va Ma'mura Rashidova “G'arib bo'lgan ajib so'z” nomli raddiyaga raddiyalar yozishgach, akademiya navoiyshunoslari menga qarshi matbuotda maqola e'lon qilishmadi.

Akademiyaning ushbu yirik ilmiy-tadqiqot instituti o'zbek adabiyoti namunalari, ayniqsa Alisher Navoiyning 10, 15, 20 jildlik nashrlarini amalga oshirib kelishdi. Men esa “To'la asarlar to'plami”(2011) 6-jildidan yuzlarcha xatolik topib, o'z kitobim “Mumtoz so'z bahsi”da (2011) va “Ma'rifat” gazetasida “Hayrat ul-abror” so'qirlikka qasidami?”, “Hayrat ul-abror” shumg'iyazormi?”, “Navoiy-modern”, “Toptalgan billur ko'zgular”, “Sharof Rashidov diqqat markazidagi masala yoxud loqaydlik pandemiyasi” singari o'nlab nordon maqolalarim bilan akademiya navoiyshunoslari ilmiy sahillikka chaqirdim.

Esimda, Navoiy asarlari 20 jildligi nihoyasiga yetgach, 2003-yil 6-avgustda “Hurriyat” gazetasida Zuhridin Isomiddinovning “Navoiy asarlarining benavo nashri” maqolasida bu ko'p tomlikka haqiqiy salbiy baho berildi. Institut ma'muriyati bu maqolani pisand qilmay 2005-yili Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to'plami” yigirma jildligining Davlat mukofotiga nomzodini qo'yishdi. Men ana shunday qaltis vaziyatda “Ma'rifat” gazetasida “Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri” nomli maqola e'lon qildim. Unda yigirma tomli-



kning har birida 500–1000 tadan matn nuqsoni borligini yozganman va institut olimlarini o'zim bilmagan holda Davlat mukofotidan mahrum qilganman.

Men aybimni bo'ynimga olaman. Gunohim – Navoiy asarlarining “Mukammal asarlar to'plami” 20 jildligi(1999) va “To'la asarlar to'plami” 10 jildligi(2011)da Sohirqiron Amir Temurga navoiyshunoslaron tomonidan bosqinchi va istibdodchi deya tamg'a bosishlariga chidayolmadim. Alisher Navoiy “To'la asarlar to'plami” 10 jildligidan(2011) ko'chirma:

**“Nasimiy Temurning istilochilik siyosatiga va istibdodiga qarshi kurashga da'vat etuvchi tariqat – xurofiylikni qabul qilgan va uni faol targ'ib-tashviq etgan” (630-bet).**

Bu gap Amir Temurga va Nasimiya bo'hton emasmi? Ular bu kabi tuhmat-u bo'htonlarini 1999-yilda Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to'plami” 15-jildida ham yozishgan edi.

Olloh taoloni jinnilar safiga qo'shib, Majnun deb ataganlariga ko'ra-bila qanday dosh berish mumkin:

*Navoiy, ahli junun zumrasig'a kirdi ilohi,  
Chun aylading ani Majnun,  
o'zungni qil anga Laylo.*

(“Mukammal asarlar to'plami”, 2-jild, 10-bet, 1987-yil).

**Mazmuni:**  
**Ey Navoiy, Olloh jinnilar safiga kirdi.**  
**Sen uni Majnun qilding. Endi o'zing unga Layli bo'!**

Akademiya olimlari, jumladan Sayfiddin Rafiddinov ijtimoiy tarmoqdagi chiqishida kaminani “To'rtta tinish belgi nuqsonini topib da'vo qiladi”, dedi. Endi ana shu institut bo'lim boshlig'i bo'lgan ulug' olim vergulning qudratini ko'rib qo'ysin:

Men o'sha baytdan “Navoiy”dan so'ng qo'yilgan vergulni olib, “Ilohi” so'zini atoqli otda ifodalab, vergulni “Ilohi” oldiga qo'yaman:

*Navoiy ahli junun zumrasig'a kirdi, Ilohi,  
Chun aylading ani Majnun,  
o'zungni qil anga Laylo.*

**Mazmuni:**  
**Navoiy telbalar safiga kirdi.**  
**Ollohim, uni Majnun qilding, endi o'zing unga Layli bo'!**

“To'la asarlar to'plami” 7-jildining “Layli va Majnun” dostonida **“fiqh ilmi jin ilmidur”** deyilganiga kim ham chiday oladi?!

*Olam aro ilm ilmi dindur,  
Jin ilmi fiqh erur yaqindur. (36-bet)*

## AKADEMIK

**Mazmuni:**

**Olamdagi ilmlar sarasi din ilmidir. Jin ilmi fiqh ekanligi aniqdir.**

Bunday Navoiy e'tiqodiga qarshi bo'lgan va nuqsonli baytlarni “To'la asarlar to'plami” jildlaridan yuzlab keltirish mumkin.

Akademiya olimlari meni kechirsinlar-u, o'sha birgina 6-tom (2011)da (nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov, I.Haqqulov, mas'ul muharrir Sayfiddin Rafiddinov) Navoiy qasri to'pdan ayovsiz o'qqa tutilgan:

*Qolmadi chu o'zga manga chopaye,  
Qal'a yasardek toribon xopaye –*

baytini Navoiy bayti deb manzur etishsa, bunga siz nima deysiz?!

“Chopaye” – nima degani? “Xopaye”-chi? “Toribon” – bu so'zni kim tushunadi?

Dunyo tillarida bunday so'zlar yo'qligiga men aminman. Navoiy hazratlari ham bu so'zlarni eshitmagani aniq.

NAVOIY IJODIDA  
VA XULQ

## Ajdodlar merosi – bebaho xazina

*Adl ila olam yuzin oftob qil,  
Xulq ila olam elini shod qil.*

Navoiy asarlarining badiiy qiymati asrlar o'tsa-da, o'z mohiyatini yo'qotmaydi, aksincha, dengiz tubida yashirilib yotgan marvarid kabi, so'zlardan inju kabi yangi ma'no, fikr va mazmun, hayrat va xulosa paydo bo'ladi.

Alisher Navoiy o'zbek tilining maqomini ulug'lash bilan bir qatorda, asarlarida yuksak insoniy fazilatlarni ochib bera oldi, poklik va halollik, xushxulqlikni targ'ib etdi. Ijod namunalari qaysi bir mavzu yoki janrga daxldor bo'lishidan qat'i nazar, tasvir, ifoda, qahramonlar (Majnun, Farhod, Bahrom) fe'l-atvorida ta'lim-tarbiya yetakchi rol o'ynadi. Komillikning ko'rinishini xulq-atvorda namoyon etdi, xulq esa bilim va tajriba orqali sayqallanadi, degan xulosaga keldi.

*Menga ne ishq-u ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur.*

Yoki yana bir misol:

*Odami ersang, demagil odami –  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Agar chin inson bo'lsang, xalqning dard-u tashvishi bilan yasha, chin komil inson uchun xalq dard-u tashvishidan boshqa bir o'y yo'qdir, deydi shoir.

**Komillikning ko'rinishi – inson xulq-atvorida namoyon bo'ladi, xulq esa bilim va tajriba orqali sayqallanadi, demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini ham belgilab beradi:** ya'ni Alisher Navoiy o'z davrida maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanish kerakligini va bu bilimga amal qilmoq zarurligini ta'kidlaydi.

*Ilm o'qub, qilmag'on amali maqbul,  
Dona sochib, ko'tarmadi mahsul.*

Bilim olishning asosiy vositasi – kitobdir:

*Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda...*

Komillikka erishishda, avvalo, ta'lim beruvchi us-tozlarning o'zi yoshlarga o'rnak bo'lishi zarurligi, shu bilan birga kamolotga erishgan shogird ustozini hamisha hurmat qilishi lozimligini quyidagicha ifodalaydi:





# ILMDAGI REKORDLAR

Bu kabi baytlar o‘sha kitobda yuzdan ortiq. Ammo bu kitoblar bizda man etilmaydi va uni tayyorlaganlar mukofot bilan siylanadi?!

Alisher Navoiy nomidagi bu ilmiy-tadqiqot instituti imloni nazorat qiluvchi bosh ilmiy dargoh hisoblanadi.

So‘zni ko‘p shakllarda yaratishda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining bu nomdor instituti (direktori tilshunos professor Nizomiddin Mahmudov) imlo sohasida o‘nlab marotaba Navoiy asarlari nashrlarida rekord qo‘ydi. Bu o‘rinda direktor xizmatini aytmay o‘tolmayman. Professor Nizomiddin Mahmudov Alisher Navoiy kitoblaridan birontasiga ko‘z tashlamagani aniq. Dalili shuki, Berdak Yusuf tayyorlagan “Navoiy tili lug‘ati” kitobi ikki jildning biror sahifasini o‘qimay turib “mas’ul muharrir” deya o‘z ism-familiyasini muhrlagan. Agar olim “To‘la asarlar to‘plami”ga birrov rahbar ko‘zini yugurtirganida edi mingdan ortiq so‘zlar ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz shaklda ketayotganini ko‘rgan bo‘lardi.

Navoiy asarlari matniga yuzlab: *sirqorib, yorqon, torqucha, rechon, razvana, raxta, toribon, supay, rash-*

## VATANPARVARLIK TARBIYASI

*Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Navoiy o‘qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo‘ysa, unga bo‘lgan talabni ham shunchalik oshiradi.

Bir rivoyatda keltirilishicha, Navoiy hazratlari shogirdlari bilan otda keta turib, yo‘l chetida o‘ynab o‘tirgan bolakayni ko‘rib qoladi. Darhol otdan tushib, bolakayga salom beradi. Atrofidagi shogirdlari bu holga hayron boqib, ustozni savolga tutadilar. Shunda hazrat Navoiy: Bu bola mening ustozimning nabirasidir, ustozimning hurmati shu qadar ulug‘ki, men hatto ul zotning nabirasiga ham ta‘zim qilaman, deb javob qaytaradi.

Shoir asarlarida vatan va vatanparvarlik tuyg‘usi yetakchi o‘rinda turadi. Navoiy turmushning kutilmagan ziddiyatlari tufayli o‘z yurtidan olisda yashashga majbur bo‘lgan paytlari ul zotni o‘zga yurtlarda izzat-ikrom qilishlariga qaramay, vatan sog‘inchi uni bir lahza ham tark etmaydi:

*G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.*

Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazinadir. Har bir hikmati biz uchun ibratdir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etadi. Shu o‘rinda biz faoliyat yuritayotgan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining bosh vazifasi – yoshlar tarbiyasi sohasining ilmiy-metodik ta‘minotini amalga oshirish, buyuk allomalarimizning ushbu yo‘nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish asosida zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish, o‘quvchilar tarbiyasi masalasida mahalla va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta‘minlash, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun ushbu mavzuga oid o‘quv va ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo‘lga qo‘yishdan iborat. Bu borada Navoiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar – zamonaviy ta‘lim jarayonida maktablarda o‘quvchilar uchun o‘zbek tarbiya modelini yaratishda asos bo‘lishi shubhasiz.

Xolboy IBRAIMOV,  
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi  
milliy instituti direktori,  
pedagogika fanlari doktori, akademik

*sha, dilrisand, rand, rechu, torsa, shaporat, shahrar, kallaro‘sh, torsang, siros* kabi jahon tillarida bo‘lmagan so‘zlar kiritilib, ular bayt mazmunini mutlaqo yo‘qqa chiqargan. Yo‘q so‘zlarning ixtirochilari nashrga tayyorlovchi – professor Ibrohim Haqqulov bilan dotsent Sayfulla Rafiddinovlardir:

*Har nafas aylab to‘la ul jomni,  
Sirqorib(?) ul bodayi gulfomni. (53-bet)*

(Alisher Navoiy “To‘la asarlar to‘plami, 6-jild, Xamsa “Hayratul abror” Toshkent, 2011-yil).

*Nayzasidur charxda ermas shihob,  
Qavs kibi yorqon(?) anga siymi nob. (57-bet)*

*Esti nasimi bu guliston sari,  
Sunbul-u sarv-u gul-u payhon sari. (61-bet)*

*Torqucha (?) ganjenam asrorliq,  
Ko‘r(?) qilibon soliki atvorliq. (62-bet)*

“Hayrat ul-abror”da birgina “tor” o‘zagidan 23 ta baytda “torsa, torib” kabi yo‘q so‘zlar qatnashgan.

*Sunbuli rechon(?) bo‘lub af‘i misol,  
G‘uncha aning nishidin ozurda hol. (67-bet)*

Yoki:

*Yel (?) boshining kosasidin jom anga,  
May yerida qon bo‘lub oshom anga. (74-bet)*

*Razvana(?) har burji aro g‘urfaye,  
Jilvagar ul g‘urfa aro turfaye. (75-bet)*

*Jomg‘a xud men qo‘ya olmon og‘iz,  
Raxta(?) bila og‘zima oni tomiz. (76-bet)*

*To yetib ul lahza nidoyi qabul,  
Toribon(?) ul tuhfa tariqi vusul. (81-bet)*

*To chekibon bir-iki jomi shigarf,  
Xoja madihida supay(?) necha harf. (82-bet)*

*Rashshadek(?) ul diddin itti malak,  
Charxda fonusdek o‘ldi falak. (165-bet)*

*Husn dog‘i jilva qilib dilrisand (?)  
Zulfg‘a torshurdi(?) balodin kamand. (165-bet)*

*Tuz chekilur borgah uzra tanob,  
Ko‘rki erur boshdin-oyoq rech-u(?) tob. (180-bet)*

*Rand(?) eshitmas edi durroji mast,  
Kizbdin etmas edi afg‘onni nast. (184-bet)*

*Qilsa “Futuhath”ni gohi savod,  
Torsa(?) futuhotidin el yuz kushod. (202-bet)*

*Ot arra yemoqda:  
Chahdag‘i tuxm arrasini oti yeb,  
Uyda tovug‘larni suruk toti yeb. (199-bet)*

Yoki:

*Ilmi(?) kim vositasi shah etar  
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.*

*Olim agar jon(?) uchun o‘lsa zalil,  
Ilmni(?) aning jahlig‘a bo‘lg‘ay dalil. (192-bet)*

*Qaydi ado aylag‘asen bu siros (?)  
Kim seni deb xayri bashar xayri nos. (205-bet)*

*Sifla nishonisi(?) shaporat(?) durur,  
Shu‘lag‘a bittab‘ harorat durur. (206-bet)*

*Ul deb ani shahrari(?) Ruhul-amin,  
Tashlab ani garchi bilisi lain. (235-bet)*

Yoki:

*Bot bo‘l-u bir jom ila yetkur futuh,  
Sabr yesa(?) Ayyubcha, yo‘q umri Nuh. (214-bet)*

*Shoxni yer yuzig‘a gisu qilib,  
Balki bu gisuni sururgu(?) qilib. (245-bet)*

*Ko‘rguzubon lola o‘yun ichra jo‘sh,  
Yel uchurub kallasidin kallaro‘sh(?) (246-bet)*

*Qaysi nafas ayshg‘a torsang(?) mahal  
Angla g‘animatki, erur bebadal. (258-bet)*

Ikki shaklli so‘zlar: Jamshed(416), Jamshid(767), sidra(199), Sidra(456), ko‘mur(510), kemur(480), tobi(636), tobe‘(636), tuma(493), to‘ma(644), bi lur(408), bulur(410)...

Uch shaklli so‘zlar: shafi(21), shafe‘(162), shafi‘(162), zoyi(290), zoyi‘(526), zoye‘(298)...

Endi aynan shu holatni tantanali ravishda “To‘bi” so‘zining sakkiz shaklini ilmiy rekord sifatida namoyishga qo‘ymoqchiman(siz zinhor shakkoklik qilib “Navoiyshunoslarning savodi shu bo‘lsa, ilmi nima bo‘lardi?” deya ko‘rmang):

to‘bi:

**Qaysi habib ulki, falak – xokidur,  
Sidrau to‘bi – xas-u xoshokidur.** (6-jild 181-bet)

tubo:

**Ne hurekim, yurub qilg‘och takallum,  
Uyotdin tubo-yu Kavsar bo‘lub gum.** (6-jild, 558-bet)

Tubo:

**“Ba‘zig‘a debdurlarki, Tubo daraxti soyasida  
javob bergumuzdir”.**(10-jild, 419-bet)

tubi:

**Huri aning ruhi musavvar kibi,  
Qadd-u labi tubi-yu kavsar kibi.** (6-jild, 91-bet)

to‘biy:

**Qaysi to‘biy jilvasi sarvi xiromoningga bor?  
Qaysi kavsarning zuloli obi hayvoningcha bor?** (2-jild, 150-bet)

To‘bi:

**Ul qaddi To‘bidin ortuq, yuzi rizvondin jamil,  
Kim berur jon la‘l har kim bo‘lsa ko‘zidin qatil.** (3-jild, 659-bet)

Tubi:

**Nozanin qadding tiriklik gulshanining naxlidur,  
Sarv-u Tubi sendek o‘lmoqning ne imkon qomati?** (3-jild, 645-bet)

tubiy:

**Aningkim qadin tubiy etti Xudoy,  
Bihisht etti gulzori ruxsorini.** (3-jild, 639-bet)

Demak: Tubo, tubo, to‘bi, To‘bi, tubi, Tubi, to‘biy, tubiy.

O‘rta maktab o‘quvchisi bir so‘zni ikki shaklda to‘rt marta yozsa, daftariga o‘qituvchi “2” baho qo‘yadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining navoiyshunos olimlari bir so‘zni 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 shaklda yozib, Navoiy bo‘yniga chalasavodlik tamg‘asini urib, davlatdan Davlat mukofoti kutishadi. Ehtimol ularni ushbu “ulug‘ xizmatlari uchun” Ginnes rekordlar kitobiga chalasavodlikning uchiga chiqqan olimi sifatida chiqarishga eng adolatli mukofotlash bo‘lar edi.

Vahob RAHMONOV,  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan  
madaniyat xodimi





Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga

# BUYUK SO‘Z SAN’ATKORI



Hazrat Nizomiddin mir Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining mislsiz yirik vakili. Daho shoiri, jahon adabiyotining yuksak san’atkori, o‘zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk qomusiy olim va mutafakkir, donishmand, davlat va jamoat arbobi, o‘z davrining madaniy hayoti rahbari, ilm-fan, san’at va adabiyot ahliga homiy, mehribon murabbiy va ustoz, buyuk alloma, nafis musiqashunos, ajoyib rassom, jiddiy siyosatchi, yetuk tarixchi, chuqur faylasuf, nozik naqqosh, mohir xattotligi va ma’naviy so‘z boyligi bilan dunyoga tanilgan komil insondir.

Hazrat Navoiy nihoyatda tinchlikparvar, adolatparvar, insonparvar edi. Navoiy bobomiz xalq manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘ydi. U butun umri va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqining osoyishtaligiga, tashqi va ichki urushlarning oldini olishga, obodonchilik va bunyodkorlik ishlariga, ilm-san’at va adabiyot rivojiga bag‘ishladi.

Donishmand Navoiy bobomiz hayotda kamtar, beozor, shirinso‘z, xushfe‘l, o‘ta ilmlı va madaniyatli, ma’naviyati yetuk, nihoyatda mehribon, saxovatli, andishali, pokiza bo‘lib, hattoki chumoliga ham ozor bermagan rahmdil komil inson bo‘lgan.

Ulug‘ tarixchi Xondamirning “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”) asarida “Chodirga in qurgan qush” hi-koyatida bayon qilishicha, safar chog‘i Navoiyning chodiriga bir g‘urrak uya yasab, tuxum qo‘yibdi. Safar nihoyasiga yetib, Hirotga qaytish fursati yetganida qush hali tuxumini ochmagan edi. Navoiy g‘urrak tuxum ochib, bolalarini katta qilgunicha chodirni qimirlatmay, shunday qoldirilsin, debdi. Chodirni muhofaza qilib turish va g‘urrak bolalarini uchirma qilgandan keyin xizmat haqi uchun chodirni o‘zi bilan olib kelishni mulozimi Xoja Hasan Baxtiyorga buyuribdi. Xoja bu ishni qabul qilib, jonivor o‘z bolalarini katta qilib, olib ketguncha kuzatib turgan ekan.

Navoiy buyuk mutafakkir, hassos shoirdir. Uning kichik she‘ridan tortib to katta hajmdagi asarlarida olam-olam ma’no ifodalangan.

Navoiy o‘z asarlarida badiiy so‘z san’atlari va xalq og‘zaki ijodiyotidan mahorat bilan foydalangan. U insonga xos olijanob fazilatlarini ulug‘laydi. Xudbinlik, adolatsizlik, egrilik, manmanlik kabi illatlarni qoralaydi.

Navoiy bobomiz kichik hajmdagi asarlarida asosan o‘z fikr-mulohazalarini, his-tuyg‘ularini batafsil ifodalab o‘tirmaydi. Balki maqsad-muddaosining faqat xulosasini bayon qiladi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) dostonida falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalar yoritilgan.

Navoiy dunyoda eng mo‘tabar, ulug‘ narsa – bu so‘zdir, deydi. U butun umrini shu so‘z san’atini egallashga, uning sirlarini ochishga bag‘ishladi.

Navoiy bobomizning quyidagi nodir hikmatlariga e’tibor beramiz:

*So‘z guharig‘a erur oncha sharaf,  
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.*

Ya’ni, so‘z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo‘la olmaydi, demoqchi.

*Odamiy ersang, demagil odami  
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.*

Ya’ni, xalq g‘amini yemagan kishini odam, deb hisoblama, demoqchi.

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a,*

*Ikki jahoningg‘a tilarsen fazo,  
Hosil et ushbu ikisidin rizo.*

*Tun-kunungga aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Ya’ni, otangning qoshiga boshingni fido, onangning boshiga jismingni sadqa qil. Agar ikki dunyo saodati-ga muyassar bo‘lishni istasang shu ikki mo‘tabar zotning roziligini ol. Birini tuningni yoritadigan oy, ikkinchisini kuningni charog‘on etadigan quyosh deb bil, deydi.

*Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur,  
Bilki, bu na‘f, o‘zingga ko‘prakdurur.*

Ya’ni, agar kishilarga foyda yetkazayotgan bo‘lsang, bilki, bundan o‘zingga foyda ko‘proqdır, demoqchi.

*Rostdur ulkim, nazari to‘g‘ridur,  
Kim iligi egridur, ul o‘g‘ridur.*

Ya’ni, nazari to‘g‘ri kishining o‘zi ham to‘g‘ri, qo‘li egri kimsa esa o‘g‘ridir, deydi.

Hazrat Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (“Qalblar sevgani”) asari ham falsafiy va axloqiy-ta’limiy asar bo‘lib, u nasriy pandnoma, nasihatnoma yo‘sinida yozilgan. Jumladan:

*Aql-u hikmat ishidur bo‘yla maosh-u oyin,  
Qayda topqay muni har nafsparast-u xudbin.*

Ya’ni, aql-u hikmat kishiga shunday zeb-u ziynat bag‘ishlaydiki, bu davlatga har qanday nafsparast-u xudbin yeta olmaydi.

*Ilmdin oriy ulusning johili xudkomasi,  
O‘rganurga jidd-u jahd etgan jahon allomasi.*

Ya’ni, ilmi yo‘q kishi xalq ichidagi o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan bir johildir. Bilmaganini o‘rganishga intilgan kishi esa jahon allomasidir.

*Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon,  
Ko‘p yemak birla bo‘lmag‘il hayvon.*

## Biz nega Navoiydan uzoqlashdik?

*Bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak, bugun bolalarimiz Alisher Navoiydan tobora uzoqlashib bormoqda. Bunga asosiy sabab ta’lim tizimida yillar davomida qilingan o‘zgarishlardir. Yoshlar ongida Navoiy nomi bor xolos, ammo Navoiy ruhi, Navoiy tili va Navoiy dunyoqarashi bola ongidan siqib chiqarilmoqda.*

Avvallari boshlang‘ich sinflarda bolalarga she‘r vazni, g‘azal qolipi, aruz asoslari sodda va qiziqarli uslubda o‘rgatilar edi. Bu bolaga g‘azalni faqat yodlash emas, balki uni his qilish, ohangini anglash imkonini bergan. Bugun esa aruz “og‘ir”, “keraksiz” deb hisoblanib, umuman chetga surildi. Natijada o‘quvchi g‘azalni his qilmaydi. Hatto universitet talabalari ham g‘azallarni tushunish u yoqda tursin, ifodali o‘qiy olmaydi.

Yana bir jiddiy muammo, maktabda eski o‘zbek tilining o‘qitilmasligi. Navoiy asarlari asl turkiyda o‘qilmay, qisqartirilgan, soddalashtirilgan yoki zamonaviylashtirilgan shaklda berilyapti. Bu esa bolani Navoiyga yaqinlashtirish o‘rniga, uni yanada uzoqlashtiradi.

2000-yillar boshidagi darsliklarga nazar tashlasak, boshlang‘ich sinf kitoblarida Navoiyning o‘gitlari, masnaviylari, ruboiylari mavjud edi. Ular bola ongida axloq, tafakkur va til hissini shakllantirardi. Hozirgi darsliklarda esa Navoiy ko‘proq “tarixiy shaxs” sifatida aks etadi, uning asarlari esa ikkinchi o‘ringa tushib qolgan.

Eng achinarlisi, bolalarimiz rus va ingliz tillarining murakkab grammatikasini muvaffaqiyatli o‘rgana olyapti, ammo o‘z ildizimiz bo‘lgan Navoiy tilini “tushunmaymiz” deb chetga surmoqda. Bunda bolada ham ayb yo‘q. Gap ta’lim tizimida... Navoiysiz darsliklarni qo‘liga tutqazib undan Navoiyni anglashni talab qilishimiz ham xato.

Boshlang‘ich sinfda Navoiydan bir misra o‘qimagan bola 10-sinfga borganda minglab g‘azal yodlatgan bilan Navoiyni anglab qolmaydi. Bu poydevor esa bolalikdan – til, vazn, ma’no va ruhiyat bilan bolaga singdirilishi lozim.

Sayyora NIZOMIDDINOVA,  
Uchquduq tumanidagi  
2-politexnikumning tarix fani  
o‘qituvchisi

Ya’ni, ko‘p gapiruvchi va ko‘p yeguvchi kishi jahannam qa‘riga shoshilayotgan badbaxtga o‘xshaydi.

*Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol,  
Yafrog‘ni ifak qilur, chechak bargini bol.*

Ya’ni, har bir ishda shoshilmagan chidamli kishi, yaproqdan ipak, gul bargidan asal undirishi mumkin.

*Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Ya’ni, kimki mashaqqat chekib, Haq yo‘lida senga bir harf o‘rgatgan bo‘lsa, yuz xazina berib ham uning haqqini ado etib bo‘lmaydi.

Shuningdek, Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod timsoli orqali ifodalagan quyidagi hikmatda inson ilmi bo‘lishi bilan birga, biror kasb-hunarli ham bo‘lib, ushbu hunari orqali o‘ziga ham, o‘zgalarga ham foydasi tegishi lozim, demoqchi:

*Hunarni asrabon netkumdur oxir,  
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir!*

Navoiy bobomiz ijodiyotida bir-biridan ma’noli, mazmunli, maftunkor so‘zlar shunchalar ko‘pki, ularning adog‘i yo‘q. Har bir so‘zni joy-joyida, o‘rinli ishlata olganlari kishini hayratga soladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra jahonning ko‘zga ko‘ringan shoir va yozuvchilari tomonidan ishlatilgan so‘zlar miqdori jihatidan ham Navoiy dunyo adabiyotida birinchi o‘rinda turadi:

Alisher Navoiy – 26035 tadan ortiq.  
Aleksandr Pushkin – 21193 ta.  
Uilyam Shekspir – 20000 tadan ortiq.  
Migel de Servyantes – 18000 tadan ortiq.  
Abdurahmon Jomiy – 17600 ta.  
Abdulla To‘qay – 14000 tadan ortiq.

Hazrat Navoiyni Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she‘r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”, deb ta’riflaydi.

Darhaqiqat, Navoiy buyuk so‘z san’atkoridir. Ulug‘ mutafakkir Navoiyning adabiy merosi ham, o‘zi ham barchamizga, ayniqsa, yoshlarga hamisha ibrat va hayot maktabidir.

Navoiy hikmatlari sodda va ravonligi, xalqchilligi, hayotbaxshligi bilan barchamizni o‘ziga tortadi. Shu bois uning purma’no hikmatlari xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, uni sevib yod olishgan va har kuni hayotimizda barchamizning dasturilamalimizga aylangan.

Muhtaram Prezidentimizning qarori asosida Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqilganligi, 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi barcha ta’lim muassasalarida shu asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligi Prezidentimizning, davlatimizning Alisher Navoiy va uning adabiy merosiga, milliy adabiyotimiz rivojiga hamda yoshlarga qaratayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rligining amaldagi yorqin ifodasidir.

Hazrat Navoiy bobomiz komil inson bo‘lgan. Asarlarida ham barchamizni komillikka chorlaydi. Uning bebaho durdona asarlari yoshlarning vatanparvar, insonparvar, xalqparvar bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishida katta yordam beradi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy g‘oyalari milliy g‘oyalarimiz bilan chambarchas bog‘lanib ketganki, Navoiyni anglash, o‘zligimizni anglash demakdir. Bobomiz barchaga yaxshilik – ezgulik ulashdi. Shu bois mana besh yarim asrdan ziyod vaqt o‘tsa hamki, ulug‘ insonparvar shoir Navoiy ijodiy merosiga chuqur hurmat-ehtiroam yanada oshib borayotganligi buning amaldagi yorqin isbotidir.

Biz buyuk donishmand Alisher Navoiydek bobomiz bilan va uning avlodlari bo‘lganimizdan hamisha faxrlanamiz.

Hazrat Alisher Navoiy ijodi poyonsiz osmonga – undagi behisob so‘nmas yulduzlarga o‘xshaydi.

Navoiyning o‘zi ham bebaho, asarlari ham o‘lmas va hamisha barhayotdir.

Guljamila A‘ZAMXO‘JAYEVA,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi a’lochisi,  
Xalq ta’limi fidoyisi



# Navoiy asarlarida rahbar ma'naviyati masalasi



Alisher Navoiy ijodida rahbar obrazi faqat siyosiy hokimiyat va hashamat egasi sifatida emas, balki **yuksak ma'naviyat sohibi** hamda xalq oldidagi shaxs mas'uliyatini anglovchi timsol sifatida talqin etiladi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Navoiy asarlarida rahbar ma'naviyati masalasi turli asosda yoritilgayotganini ko'rsatmoqda. Bu bejiz emas.

## Rahbarlik va ma'naviy mas'uliyat uyg'unligi

Navoiy nazarida rahbarlik faqat boshqaruv vakolati emas, balki **axloqiy va ma'naviy burchdir**. "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyat boshqaruvida turgan podshoh, vazirlar va boshqa tizim rahbarlari, avvalo, halol, adolatli, vijdonli va or-nomusli bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Navoiy rahbar shaxsni jamiyat ma'naviy muhitining bosh tayanchi sifatida ko'radi va shunday bo'lishga da'vat etadi. Navoiy asarlari va undagi ayrim xulosalariga tayanib aytish mumkinki, mutafakkir rahbar ma'naviyatini to'rt asosiy tamoyil orqali baholaydi:

1. Adolatli bo'lish.
2. Xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish.

3. Nafsni jilovlash.
4. Kamtarlik.

## Adolat – rahbar ma'naviyatining mezon

Navoiy asarlarida adolat rahbar ma'naviyatining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Mutafakkir didaktik ruh-dagi barcha asarlarida adolatsiz rahbar jamiyatni tanazzulga olib borishini qat'iy ta'kidlaydi, uqtiradi va badiiy misollar bilan dalillaydi. Uning mashhur ruboiysida bu fikr ochiq ifodalana-di: *"El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas"*.

Mazkur xulosa rahbarning ma'naviy qiyofasi xalq farovonligi bilan bog'liqligini anglatadi. Bu g'oya Navoiy lirikasida go'zal misralar bilan aks ettiriladi.

## Rahbarlik va ma'naviyat

Alisher Navoiy o'z hayotida ham rahbar ma'naviyati bilan o'rnak bo'la olgan buyuk siymodir. Husayn Boyqaro davrida "Amiri kabir" lavozimida faoliyat yuritgan Navoiy quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

1. Soliqlarni kamaytirish.
2. Og'ir jazolarni yengillashtirish.
3. Aholini ish bilan ta'minlash.
4. Davlat bilan xalq o'rtasidagi doimiy aloqani yo'lga qo'yish.

Bu faoliyat Navoiyning rahbarlikni ma'naviy burch sifatida tushunganini ko'rsatadi.

## Xalq uchun bunyodkorlik – rahbar ma'naviyatining amaliy ifodasi

Manbalarda qayd etilishicha, Navoiy shaxsiy mablag'i hisobidan yuzlab ijtimoiy inshootlar, xususan, masjid, madrasa, shifoxona, karvonsaroy va ko'priklar qurdirgan. Bu holat rahbar ma'naviyatining eng yorqin ko'rinishi – **xalqqa xizmat** ekanini tasdiqlaydi.

## "Saddi Iskandariy" dostonida ideal rahbar ma'naviyati

"Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi orqali Navoiy o'zi orzu qilgan rahbar ma'naviyatini tasvirlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, ideal rahbar:

- 1) donishmand bo'lishi;
- 2) qonun va adolatga tayangan bo'lishi;
- 3) hokimiyatni xalq manfaatiga xizmat qildirishni bilishi;
- 4) rahnamolik va tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim.

Bu mezonlar Navoiyning rahbar ma'naviyati haqidagi qarashlarini umumlashtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida rahbar ma'naviyati tasviri shunchaki tasodifiy emas. Hazrat Navoiy rahbarlikni yuksak axloq, adolat va xalqparvarlik bilan chambarchas bog'liq tushuncha sifatida talqin etadi, qolaversa, shunday sifatlariga ega rahbar sifatida tarixda muhrlanadi.

Bugungi kunda ham Navoiy merosi rahbar shaxs ma'naviyatini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Farrux YO'LDOSHEV,  
Navoiy davlat universiteti dotsenti,  
f.f.d.(DSO)

## KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

### I. "Chizmatasvir" kafedrası:

– kafedra mudiri.

### II. "Dizayn" kafedrası:

– kafedra mudiri.

### III. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrası:

- professor;
- dotsent;
- katta o'qituvchi.

### IV. "Amaliy bezak san'ati" kafedrası:

– dotsent.

### V. "Libos dizayni" kafedrası:

– o'qituvchi.

### VI. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrası:

– o'qituvchi.

### VII. "Amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrası:

– o'qituvchi.

### VIII. "Haykaltaroshlik" kafedrası:

– o'qituvchi.

### Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;
- mehnat daftarchasi nusxasi;

- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;
- katalog.

**Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.**



Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.  
Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, 255-98-39.




Mutolaa

# Kishini yig'latgan, hushyor torttirgan va o'zgartirgan kitoblar

Ba'zi kitoblar shunchaki o'qilmaydi. Ayniqsa, hayotini jurnalistika bilan bog'lagan inson uchun adabiyot insoniy taqdirlar, ijtimoiy adolat va zamon nafasi aks etadigan tirik hujjatdir. Media ta'lim markazi direktori, media trener Beruniy Alimov o'qigan kitoblar aynan shunday, kishini ham o'ylantirib, ham yig'latadigan, ba'zan hushyor torttiradigan, kezi kelsa insonni o'zi bilan yuzlashtiradigan asarlardir. U hayotiga ta'sir qilgan, yuragida chuqur iz qoldirgan va fikrini charxlashga ko'maklashgan kitoblar haqida samimiy mushohada yuritadi.

## Meni yig'latgan kitob

Hayotim qariyb 35 yildan beri jurnalistika bilan bog'liqligi sabab kitoblardagi to'qima qahramonlar bilan uncha chiqisholmayman. O'qiyotgan kitoblarimda hech bo'lmasa meni ishontiradigan faktlar yoki asar qahramonlarining hayotdagi prototipi bo'lishi kerak. Eng hayratlanarlisi, hozir tilga olmoqchi bo'lgan kitobni gullagan o'rik tagida o'tirib o'qir ekanman, nafaqat jimgina, balki hayotning bu qadar adolatsizligan baqirib yig'laganman.



Mahoratli va betakror yozuvchi Xolid Husayniyning uchta asosiy romani "The Kite Runner", "A Thousand Splendid Suns" va "And the Mountains Echoed" global bestsellerga aylangan. Ularning umumiy sotuv hajmi 55 milliondan oshgan va 70 dan ortiq tillarga, shu jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Ta'kidlash kerakki, uning "The Kite Runner" asari Afg'onistondagi taqiqlangan asarlar ro'yxatiga kiradi. Roman oddiy o'smirlar do'stligi haqida bo'lsa-da, undagi keskin ijtimoiy-siyosiy mavzular sabab ayrim mamlakatlarda hanzur taqiq ostida. Shunga qaramay, kitob Afg'oniston masalalarini dunyo jamoatchiligiga tanishtirgan eng kuchli adabiy asarlardan biri. Shuningdek, "A Thousand Splendid Suns" ayollar taqdiriga bag'ishlangan kuchli ijtimoiy roman.

Bu asar ikki afg'onistonlik ayolning murakkab hayot yo'lini tasvirlar ekan, urush va insoniylik mavzularini keskin ko'taradi. Ko'pchilik tanqidchilar uni XXI asrning eng muhim adabiy asarlaridan biri deb baholaydi. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Husayniy yozuvchi bo'lishdan avval ichki kasalliklar bo'yicha shifokor sifatida Amerika kasalxonalaridan birida faoliyat yuritgan. Adabiyotga "kech kirgan bo'lsa-da", birinchi romani uni tezlikda jahon sahnasiga olib chiqqan. Keyinchalik u BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi elchisi sifatida insonparvarlik ishlariga katta hissa qo'shgan.

## Illyuziyalarni yoqtirmayman

Umrning katta qismini illyuziyalar bilan o'tkazamiz. Vladimir Poznerning "Illyuziyalar bilan xayrlashuv" asari insonning o'zi, zamon va Vatani oldidagi eng og'ir savollarga rostgo'y javob berishga urinishidir. Bu oddiy memuar asar emas.

Asarda yasama pafos yoki bezakli gaplar yo'q. Faqat tajriba, dard va aql bilan aytilgan haqiqat bor. Kitobni o'qir ekanmiz, har birimiz o'z hayotimizda qaysi illyuziyalar bilan yashab kelganimiz haqida o'ylab qolamiz.



Pozner ushbu asarda Rossiya, Amerika va Yevropaga nisbatan muhabbat, tanqid va shubhani bir vaqtda olib yuradi. U hech kimni oqlab yoki qoralamaydi, aksincha o'quvchini fikrlashga majbur qiladi. Muallifning asosiy kuchi ham aynan shunda: u o'quvchini tayyor xulosalar bilan emas, balki og'ir, ammo zarur savollar bilan yuzma-yuz qoldira-


di. Bu kitob fikrlashni yaxshi ko'radiganlar uchun.

"Illyuziyalar bilan xayrlashuv" og'riqli jarayon, ammo o'sish aynan shu nuqtadan boshlanadi. Asarni o'qib bo'lgach, inson nafaqat Poznerni, balki o'zini ham yaxshiroq taniy boshlaydi. Shu sababli bu kitob o'qiladi va xotirada qoladi.

Aslida illyuziyalar bilan xayrlash olish hammaga ham nasib etmaydi. Ayniqsa, tug'ma optimistlar buni hech qachon eplay olmaydi. Chunki ular uchun ichi po'kka bo'lsa-da, go'zal illyuziyalar hayotning asl mazmun-mohiyatini belgilaydi. Hatto shundaylarni bilamanki, o'zi uchun biron-bir afsonani to'qib, uzoq yillar davomida ana shu yolg'onlarga o'zlari ishonib yuraverishadi.

## Do'stimdan sovg'a

Ba'zi kitoblar shunchaki o'qilmaydi, ular kundalik hayotingizga sekin kirib keladi-da, siz bilan bir umr qolib ketadi.



"A Poem a Day" aynan shunday kitoblardan. "Har kuningiz uchun bittadan she'r" xuddiki, fikrni charxlaydigan, ruhni tinchlantiradigan kundalik adabiy "trenirovka"ga o'xshaydi.

Kitobni varaqlagan sari shoshib o'tayotgan soniya, daqiqa, soat va kunlar orasida she'riyatga to'xtalib o'tish qanchalik muhimligini yana bir bor his qilasiz. Bu kitob kamina uchun yana bir sabab bilan qadrli: uni menga yaqin do'stim Maria sovg'a qilgan. Undagi dastxat oddiy yozuv emas, balki chorak asrlilik tarixga ega bebaho xotiradir. Sir emas, ba'zan sovg'aning o'zi emas, uni kim va qanday niyat bilan bergani ahamiyatli.


Bundan 25 yil oldin Atlantadagi CNN telekanaliga amaliyotga borganimda yozilgan bu so'zlar kitobni yanada jonli qilgan:

"Do'stlik ham aslida she'rga o'xshaydi: u balandparvoz bo'lishi shart



emas, ammo samimiy, chin dildan bo'lsa kifoya".

## Ko'rinmas odam – fantastika niqobidagi haqiqat



Ba'zan ko'rinmaslik kuchsizlanish emas, balki jamiyat oynasiga qo'yilgan eng keskin savolingizdir. "Ko'rinmas odam" shuni eslatadiki, inson tanasi yo'qolishi mumkin, ammo yurak, vijdon, mas'uliyat va oqibatlar hech qachon g'oyib bo'lmaydi. Ko'rinmas bo'lish nazoratdan chiqish emas, aksincha, nazoratning eng xavfli sinovidir. Chunki sizni hech kim ko'rmaganida, kim ekaningizni aynan o'zingiz hal qilib olasiz. Bu qissa voqealari ilm va axloq o'rtasidagi nozik chiziqlarda ko'rinadi. Bilim qudratga aylanganida, u kimning qo'lida ekanini anglatadi: qudrat esa o'z navbatida har kimdan javobgarlikni talab qiladi.

Agar ilm maqsadni yamlab, yutib yuborsa, inson o'zini ham yo'qotadi. Uells bu yerda bir savolni jiddiy qo'yadi: "Hamma narsa mumkin bo'lib qolsa, hammasi joiz bo'ladimi?". Javoblar esa sukutdan ko'ra, oqibatlarda yashiringan. "Ko'rinmas odam" aslida fantastika libosidagi haqiqat. Bugun ham oramizda ko'rinmaslar ko'p: algoritmlar ortida, mansab pardasi ortida, ekran soyasida. Kitob kishini ko'rinmay turgan joyida ham inson bo'lib qolish jasoratini topish kerakligiga chaqiradi. Chunki oxir-oqibat, bizni odam qiladigan narsa ko'rinishimiz emas, tanlovlarimizdir.

Ha, adabiyotning eng katta kuchi insonni o'zgartira olishida. Xolid Husayniy romanlari orqali urush va insoniylik fojialarini his qilamiz, Pozner bilan illyuziyalarimizdan voz kechamiz, she'riyat orqali ruhimizni tinchlantiramiz, Uells esa ilm va vijdon o'rtasidagi nozik chiziqlarni eslatadi.

Sahifani Fayoza AVLAYEVA tayyorladi.





*Abidov Xasanxodja Alisherovichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda atopik dermatitning klinik, immunologik va immunogenetik mexanizmlarni o'rganish asosida kompleks terapiyasini maqbullashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.  
Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: tashmeduni@gmail.com

*Tilyakov Xasan Azizovichning 14.00.12 – Tibbiy rehabilitologiya ixtisosligi bo'yicha “Chanoq-son bo'g'imini endoprotezlashdan keyingi tiklanish bosqichlarida reabilitatsiya dasturlarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.  
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

*Nurova Go'zal Ubaydullayevnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.04 – Otorinolarologiya ixtisosliklari bo'yicha “Turli yoshdagi bemorlarda surunkali rinosinusitning morfologik va klinik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-fevral kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (95) 911-00-50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

*Davronova Shaxnoza Raxmonovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Harorat ta'siri dinamikasida timus va taloq o'rtasidagi a'zolararo munosabatlarning funksional morfologiyasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12 Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-fevral kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (95) 911-00-50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

*Muminova Dilnoza Alisher qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Shifoxonadan tashqari zotiljam bilan kasallangan bolalarda buyraklarning funksional o'zgarishlari va ularni korreksiya qilish yo'llari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.  
Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: tashmeduni@gmail.com

*Tog'ayev Botir Normahmadovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Bekross duragaylash asosida Qashqadaryo viloyatining ekstremal tuproq iqlim sharoitiga mos g'o'za navini yaratish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining(himoyasiz seleksiya yutug'i(ixtiro patenti) asosidagi) himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-fevral kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salor shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy.  
Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

*Gaffarova Feruza Xojikurbonovnaning 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “COVID-19 aniqlangan homiladorlarda yuqori nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarining klinik-laboratoriyaviy tavsifi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (95) 911 00 50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

*Ganjiyev Farrux Xayrilloyevichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha “Jigarning travmatik jarohatlanishlarida mahalliy gemostatik vositalarning samaradorligini qiyosiy baholash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-fevral kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Ismatov Tuychiboy Axrorkulovichning 14.00.27 – Xirurgiya hamda 14.00.02 – Morfologiya ixtisosliklari bo'yicha “Immunologik xavfi bo'lgan bemorlarga donor buyrak morfologiyasiga yuqori sezuvchanlikning ta'siri” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Eshchanov Alisher Atabayevichning 14.00.27 – Xirurgiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “O'tkir chandiqli ingichka ichak tutilishining kompleks diagnostikasi va davolashning klinik-immunologik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 20-fevral kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Sattarov Ja'sur Elmurodovichning 14.00.27 – Xirurgiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “Kron kasalligining klinik-immunologik mezonlari va qaytalanishining oldini olish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 20-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Jumanov Alisher Raxmatkulovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Taekvondochilarni musobaqalarga tayyorlashda jangovar harakat kombinatsiyalarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-fevral kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi.*  
Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.  
Tel/faks: (70) 717-17-19, 717-27-27, 717-17-76;  
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjsu.uz

*Egamberdiyev Muhammad Nizomiddin o'g'lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Kikbokschilarda harakat aniqligini barqarorlashtiruvchi muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.  
Tel/faks: (70) 717-17-19, 717-27-27, 717-17-76;  
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjsu.uz

*Usmonova Aziza To'lqin qizining 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha “Umumta'lim maktablari imijini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

*Soatov Oybek Ibragimovichning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda yer tuzish ishlarini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 20-fevral kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

*Toxirov Kozim Najim o'g'lining 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha “Masofadan zondlash orqali degradatsiyaga uchragan yaylov yerlar monitoringini yuritish usulini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

*Rahmonova Gulhayo Saidjon qizining 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha “Elektron ta'lim platformalari muhitida malaka oshirish sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy.  
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

*G'aniyev Ochilbek Orifjon o'g'lining 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha “Tog'oldi yaylov yerlarida raqamli texnologiyalar yordamida geobotanik baholash usulini takomillashtirish(Pop tumani misolida)” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*  
Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Matematika fakulteti “Mexanika va matematik modellashtrish” kafedrası professori, fizika-matematika fanlari doktori  
**Natalya KORSHUNOV**aning vafoti munosabati bilan uning oila a'zolariga ta'ziya izhor etadi.





## Yangi nashr

## Sensiz yashab bo'lmaydi, Vatan!

Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanida tug'ilib, hozir AQSHda yashayotgan ijodkor Halima Jumaniyozova ko'pchilik muxlislari qalbidan turkum hikoyalari, she'rlari bilan o'rin olgan. Yaqinda uning "Mening faslim" kitobi ("Akademnashr", 2025) chop etildi. She'rlari, hayotiy hikoyalari Vatan sog'inchi yetakchi o'rin tutadi. Shoir hayotdan ko'p narsani, jumladan, dilini alam va hadik chulg'aganda shodlikni chorlashni, tuyg'ularini she'rda ifodalashni, g'animlarga tik boqmoqni, sevishni, sevilishni o'rgandi, ammo o'zi yozganidek:

*Qismat yo'l ko'rsatdi, hayot pishirdi,  
O'rgandim ne ilm, aslo tolmadim.  
Ey, yuzi quyoshdan issiqroq Vatan,  
Men sensiz yashashni o'rganolmadim.*

Vatan ishq turkumidagi she'rlarida shoir maysa bo'lib ona tuproqda unishni orzu qiladi, kun o'tgan sayin ona yurt qadri bilinayotganini ta'kidlaydi, qayda bo'lsa ham uni kuylashini, mayin mehr, sog'inchga talpinishini o'tli misralarda ifodalaydi:

*Sog'inganda to'yib yig'lasam,  
Hur-hur shamol bo'lib yelasan.  
Go'yo meni izlab kelasan,  
Sensiz yashab bo'lmaydi, Vatan.*

Zero, bu Vatanda shoiraning bolaligi bor. Muhtasham qasrlar-u, oromgohlarning hech biri ko'nglini ovutolmaydi, chunki yurakda sog'inch cho'g'i bor:

*Otam yonboshlagan qadrdon so'ri,  
Onam suygan tandir hovurin yutdim.  
Bildim, hammasidan muhtasham, ulug',  
Hammasidan o'zing yaxshi, To'rtko'lim.*

Ko'ksi Vatan ishqiga to'liq shoiraning har bir satrini o'qir ekansiz, kindik qoni to'kilgan tuproq naqadar azizligini yana bir karra anglaysiz. Vatan olisdan uni mayoq bo'lib chorlaydi, olmozor bog'lar bag'rida o'tgan bolaligini qo'msaydi, yurtini o'zidan ko'proq yaxshi ko'radi:

*Daraxtman, ildizim senda qolgandir,  
O'ylayman, u mensiz o'yga tolgandir.  
Sensiz bu dunyoning bori yolg'ondir,  
Mening kindik qonim to'kilgan tuproq.*

Shoira ummon ortida turib yurtining daraxtlarini, ajnabiy ohanglardan charchab, dunyoni kuy qilib chalgan qamishlarini, Komiljon Otaniyozovning "Segoh"i-ni, tonglarni sog'inadi:

*Saharxez qushlarga chiqqanda peshvoz,  
Ko'nglimga yig'idan bir armon keldi.  
Armonga qo'shilib chiqdi ovozim:  
O'zbekiston tonglari boshqacha edi...*

Halima Jumaniyozovaning Fuzuliy, Andrey Voznesenskiy, Konstantin Balmont, Persi Bishi Shelli satrlaridan ilhomlanib yozgan she'rlarida ham ona zamin mehri ustuvor:

*Yiqilsam, onamday ko'taradigan,  
Umidday har lahza ufuradigan,  
Tovonimni o'pib gurkiraydigan,  
Sen ishqsan, mehrsana, ey ona zamin.*

Kitobdan shoiraning "Jaloliddin Manguberdi" dostoni va unga filologiya fanlari doktori, akademik Matyoqub Qo'shjonov yozgan taqriz ham o'rin olgan. "Shoira "Jaloliddin Manguberdi" dostonida o'z elining buyuk qahramonlari bilan faxrlanadi. Ularning obrazlarini shunday hissiyot va hayajon bilan tasvirlaydiki, uni o'qigan kitobxon xuddi Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliklar bilan yonma-yon turib jangga kirayotgandek his qiladi o'zini. Dostonda o'sha davr qahramonlarini izohlaydigan ulug' g'oyalar ham aks ettirilgan" deb yozgan Matyoqub Qo'shjonov. Darhaqiqat, quyidagilarni siz ham befarq o'qimaysiz:

*"Alqissa, Sulton Jaloliddin yov lashkarlari tomon ot soldi. Qattol yovga qiron soldi, dod soldi. U sermagan shamshirlarning ovozi falaklarning bag'riga bir o't soldi. Jaloliddin chaqmoq yanglig' chaqnadi, g'anim qishki ildiz misol chatnadi".*

Sultonning vahshati Chingizxonni shunchalik lol etdiki, u shunday jar soldirdi:



*Olmos shamshir, qirq gaz qilich, qalqoni,  
Olov bilan qorilganmi yo joni?  
Armonim yo'q, bo'lsa shunday o'g'lonim,  
Bir ko'rsaydim shu Sultonning o'zini.*

Kitobning "Sog'inch sohillari" bo'limida berilgan hikoyalarda ham Vatan sog'inchi yetakchi o'rinda. "Onaginam", "Otamning dostonlari", "Olma gullaganda", "Suv oqizgan kulchalar", "Momomning qalag'ay ro'moli", "Goh-goh tiriltiring xotiralarni" kabi esse, hayotiy hikoyalar ham kitobxon tomonidan sevib o'qilishiga ishonamiz.

Shoira shunday niyat qiladi:

*Go'zal afsonam bor tugallanmagan,  
Umr jomidagi sharbatim yarim.  
Men shu afsonani tugatgunimcha,  
Sen meni asrab tur, asragin, Robbim.*

Olis yurtlarda Vatan sog'inchi bilan yashab ijod qilayotgan ijodkorimiz Halima Jumaniyozovaga niyat-lari ushalishini tilab, navbatdagi kitobini kutib qolamiz. Ungacha biz muxlislarga "Mening faslim" muborak bo'lsin.

**Mahmuda VALIYEVA,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



# Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. V-6051. Tiraji-4800.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.  
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat" dan  
materiallarni ko'chirib bosish  
tahririyat ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.  
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar  
taqriz qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun  
ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.  
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.  
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:  
100099, Toshkent shahri,  
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida  
chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

